

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ * AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

RIYOSIZ SO'ZLAR

MUQADDIMA

Haqiqiy yozuvchi-shoirlar haqiqatni yozishni xush ko'radi. Dunyoning qaysi bir chetidagi adolatsizlik ularga xuddi o'zining uyida ro'y berayotgandek tuyuladi. Qaydadir adolatning barqarorligi yoki g'alabasi ularning ruhiyatini ko'taradi. Ular har bir yaxshi odamning muvaffaqiyatidan quvonadi, odamlarning muammolari esa ularning ham dardiga aylanadi.

Ular — vatanparvar. Harholda, O'zbekistonda xuddi shunday. Vatanning gullab-yashnashi, ijobiy o'zgarishlar har bir fuqaroning hayotini yuksaltirish sari qo'yilgan qadam ekanini teran his qiladilar, kayfiyatlari ko'tariladi. Xudoga ming shukrki, bu o'zgarishlar har soatda, har kuni ro'y berib turibdi.

Butun mamlakat harakatda. Eng muhimi, bu islohotlar jaydari tusda emas, balki jahonning eng ilg'or texnologiyalari asosida olib borilmoqda.

Sharoitlar yaratilgani tufayli investitsiyalar bemaolol kirib kelyapti. Rivojlanish shiddati butun mamlakatni qamrab olgan.

Qalam ahli bu va ko'plab boshqa yutuqlardan boxabar. Muammolarni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlarni ham mudom sezib turadi.

Yaqinda bir guruh ijodkorlar bilan qo'shni do'st mamlakatda safarda bo'ldik. Bir kech o'z-o'zidan badiha davra tuzilib, suhbat gurillab ketdi. Avval mezbon mamlakatni O'zbekiston bilan taqqos qila boshladik. Baravariga «Biz oldinga ketibmiz» degan xulosaga keldik! Bugungi O'zbekiston haqida gaplashdik. Men yetmish olti yil umr ko'rganimni, ammo xalqimiz hech qachon bunday yayrab yashamaganini aytib qoldim. Davradagilar bu gapimni ham bir og'izdan tasdiqladi. Ha, shunday! Hech qachon bunday yashamaganmiz!

Buyuk o'zbek yo'li

Yuraklarni faxr bilan to'ldirgan bu e'tiroflar qachon ko'nglimizni to'ldirdi?

Axir biz e'tirof etgan yutuqlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q-ku!

Uning ortida kimning mehnati-yu zahmati, betinim harakati yotibdi?

Mamlakatimizning barcha hududida yoyilgan bunyodkorlikka kim g'ayrat-shijoat bag'ishlayapti?

Savollarga javob bitta: bu olamshumul zafarlarning ortida bir kishining, ha, bir kishining — O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fidokorligi turibdi.

Oz emas, ko'p emas, Yangi O'zbekistonni qurmoqchi bo'lgan shu azamat insonning misli ko'rilmagan fidokorligi!

(Davomi 4–5-betlarda.)

LATIF SHAHAR - OSOYISHTA SHAHAR



Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan va «Latif shahar» nomi bilan mashhur Qo'qon necha asrlarki, Markaziy Osiyoni Xitoy, Hindiston, Eron va g'arb mamlakatlari bilan bog'lovchi muhim savdo chorrahasi sanaladi. Qo'qon bozorlari hamisha gavjum, shaharning tarixiy va me'moriy obidalari esa dunyo sayyohlarini o'ziga maftun etib keladi.

Tabiiyki, bu kabi ko'hna shaharlarda tinchlik va barqarorlikni saqlash, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikni jilovlash huquq-tartibot organlaridan katta mas'uliyat talab etadi. Qo'qon shahar IIB shaxsiy tarkibi bu borada zimmasiga yuklatilgan vazifani sidqi-dildan bajarib, hududdagi krininogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishmoqda.



Xavfsiz hudud

LATIF SHAHAR - OSOYISHTA SHAHAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

ASOSIY OMILLAR

Xo'sh, ijobiy o'zgarishlarning asosiy omillari nimada?

- Davlatimiz rahbarining mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlari erishilayotgan yutuqlarimizda bosh mezon bo'lmoqda, — deydi shahar IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Burxonjon Mamajonov. — Mazkur qarorlarda ishlash zarur bo'lgan obyektlar, mas'ul subyektlar hamda «mahalla yettilligi»ning vazifalari aniq belgilab berilgani, nazorat tizimining mukammal mexanizmi yaratilgani amaliyotda o'z samarasini bermoqda.

Prezident qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Qo'qon shahar hokimligi, prokuratura, soliq inspeksiyasi, Qo'riqlash bo'limi va Mahalla uyushmasi shahar bo'limi bilan birgalikda qo'shma qaror tasdiqlandi. Hozirda 14 ta idora rahbarlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi shtab, ishchi guruh va targ'ibot guruhlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, belgilangan ustuvor vazifalar hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

HAFTALIK DOIRASIDA

Mutasaddilarning ta'kidlashicha, joriy yilning birinchi choragida shahardagi kriminogen vaziyati og'ir, jinoyatchilik salmog'i yuqori mahallalarida «Ijtimoiy profilaktika haftaliklari»ning o'tkazilgani vaziyatni barqarorlashtirishda muhim omil bo'ldi.

Haftalik doirasida aholi uchun sayyor qabullar va bepul tibbiy ko'riklar tashkil etildi. 130 dan ziyod nizoli oilalarning yashash sharoitlari joyida o'rganildi. Probatsiya hisobida turuvchi, muqaddam sudlangan hamda narkologiya dispanseri nazoratidagi shaxslar bilan rahbarlar ishtirokida profilaktik suhbatlar olib borildi.

Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan – 172-marta, tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan – 95 marta, xotin-qizlar bilan – 74 marta, probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan 61 marta uchrashuvlar uyushtirildi.

Maktablarda o'tkazilgan «Davomat», «O'quvchi» va «O'smir» tadbirlari natijasi o'laroq, darslarni muntazam qoldirib kelayotgan 936 nafar o'quvchi maktabga qaytarildi.

«Qizil» toifadagi mahallalarda yashovchi 17 nafar ishsiz fuqaroning 11 nafari ishga joylashtirildi, 3 nafarini kasbga o'qitilib, yana 3 nafari kasbga yo'naltirildi. Probatsiya nazoratidagi 229 nafar shaxsning bandligi ta'minlanib, 6 nafari monomarkazlarda o'qitildi.

MUHIM MASALAGA JIDDIY E'TIBOR

- Joriy yilning o'tgan davrida xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 50 foizga kamaydi, — deydi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, katta leytenant Zulxumor Hayitova. — Bunday ijobiy natijaga erishishda shahar IIB rahbariyati tomonidan har bir nizoli oila muammosiga individual yondashilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, oila-turmush doirasidagi nizolar aksariyat hollarda ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar ortidan kelib chiqadi. Shu bois asosiy e'tibor bandlikni ta'minlashga qaratildi.

Ko'rilgan tezkor chora-tadbirlar tufayli 148 ta nizoli oilada ajralishlarning oldi olindi. Shuningdek, 326 nafar shaxsga himoya orderi berilgani og'ir oqibatli jinoyatlarning barvaqt oldini olishda yaxshi natija berdi.

«NURAFSHON» MAHALLASI - «YASHIL» HUDUD

7400 nafar aholi istiqomat qiladigan «Nurafshon» mahallasida jinoyatchilik salmog'i yuqori bo'lib kelayotgan edi.

- Hududimizda zamonaviy huquq-tartibot maskani tashkil etilib, profilaktika inspektori, patrul-post va qo'riqlash xizmati xo-



borot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar 47 foizga kamaydi.

E'tiborlisi, ayni paytda shahardagi mahallalarning 47 tasi (69,1 foizi) «yashil», 21 tasi (30,9 foizi) «sariq» toifada bo'lib, hududda birorta ham «qizil» mahalla qolmagan. Mazkur raqamlar – ijobiy ko'rsatkichlar shaharda xizmat to'g'ri va sifatli tashkil qilinayotganini ko'rsatadi.

dimlarining hamkorlikdagi faoliyati yo'lga qo'yilgach, aholining xotirjamligi ta'minlandi, — deydi mahalla raisi Gulnora Shermatova. — Gavjum maskanlar va markaziy ko'chalarga 51 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilib, barchasi profilaktika inspektori, mayor Boburjon Akbarovning xizmat xonasiga integratsiya qilindi. Natijada hududda raqamli nazorat tizimi shakllanib, fuqarolarimizning hushyorligi oshib, qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonchi yanada yuksaldi.

Tizimli yondashuv natijasida mahalla o'tgan yildagi «sariq» toifadan joriy yil boshida «yashil»ga o'tdi. Yaqinda mahallamizda bo'lgan ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov huquq-tartibot maskani va «yettillik» o'rtasida hamkorlikda olib borilayotgan ishlarga yuqori baho bergani bizga qo'shimcha qo'shimcha mas'uliyat va kuch-quvvat bag'ishladi.

ISLOHOTLAR SAMARASI

Hozirgi kunda Qo'qon shahridagi 68 ta mahallada qariyb 320 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Hududda jamoat tartibini saqlash va kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash ishlari 3 ta ichki ishlar bo'limi hamda 4 ta huquq-tartibot maskani orqali tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Quvonarlisi shundaki, olib borilgan ta'sirchan profilaktik tadbirlar natijasida joriy yilning birinchi choragi yakuni bo'yicha sezilarli ijobiy ko'rsatkichlarga erishildi. Xususan, umumiy jinoyatlar soni 11,4 foizga, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 38 foizga, ax-

«RAQAMLI XAVFSIZ SHAHAR» TAMOYILI - AMALDA

Ayni kunlarda Qo'qon shahar IIBda Ichki ishlar vazirligi mutasaddi rahbarlaridan iborat ishchi guruh faoliyat olib bormoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – «Raqamli xavfsiz shahar» tamoyili asosida bajarilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.

Shuni alohida qayd etish zarurki, joriy yilning birinchi choragi davomida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar ijrosi 104,7 foizga bajarildi. Xususan, raqamlashtirish jarayonlari doirasida shaharning 70 ta nuqtasiga yangi, zamonaviy kuzatuv kameralari o'rnatildi, ko'p qavatli uylarning kirish eshiklari 179 ta domofon bilan jihozlandi. Shuningdek, hududda 20 ta namunaviy «xavfsiz ko'cha», 44 ta «xavfsiz yo'lak» tashkil etildi.

Boshqarma qoshidagi Situatsion markazga shahar hududidagi barcha kuzatuv kameralari integratsiya qilingan bo'lib, bu yerda raqamli texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan malakali mutaxassislar vaziyat nazoratini olib borishmoqda. Bu kabi zamonaviy tizim «Latif shahar» osoyishtaligini ta'minlashda samarali va tezkor vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Inson qadri – aziz

«TINCHLIK» SO‘ZI ENG KO‘P TA‘KIDLANDI

Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan ajdodlarimiz xotirasini yod etish, urush qatnashchilari va front ortida mehnat qilgan faxriylarga yuksak hurmat-ehтиrom ko‘rsatish Xotira va qadrlash kunining bosh g‘oyasi va mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Tantanali orkestr sadolari va mehmonlarning davomiy tashrifidan Chilonzor tumanida yashovchi Tamara Sokolovaning ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi. Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov

uning xonadoniga tashrif buyurib, davlatimiz rahbari tomonidan yo‘llangan tabrikni shaxsan o‘qib eshittirdi. Onaxonga, shuningdek, Prezidentimiz sovg‘alari ham topshirilib, mustahkam salomatlik tilandi.

Mudhish Leningrad qamaliga guvoh bo‘lgan onaxonning nigohlarida bu-



gungi unutilmas lahzalar uchun mamnunlik va tinch-osuda hayotga bo‘lgan shukronalik mujassam edi. Jonajon qo‘shnilar bilan kechgan suhbatda ham eng ko‘p ta‘kidlangani – «tinchlik» so‘zi bo‘ldi. Zero, tinchlikning asl qadrlarini urush-

ning suronli yillarini ko‘rgan insonlar chin yurakdan his etadi.

Murg‘ak go‘dakligi dahshatli konslager panjaralari ortida o‘tgan, urushdan keyingi mashaqqatli yillarda og‘ir mehnatda toblangan Alla Funtikova ham davlatimiz rahbarining tabriknomasi va bayram sovg‘alarini katta hayajon bilan qabul qilib oldi.

Nuroniylar bilan suhbatlashish asnosida ular

bosib o‘tgan shonli umr yo‘li allaqachon xalqimiz uchun bebaho ma‘naviy xazina va matonat maktabiga aylanganini teran his qildik. Zero, ularning hayoti yosh avlod uchun tinchlikni asrash va Vatanni sevish borasidagi eng yuksak ibratdir.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-
muxbir, katta serjant.

Xalqaro hamkorlik

UMUMIY TAHDIDLARGA QARSHI

Toshkent shahrida MDHga a‘zo davlatlar ichki ishlar vazirliklarining jinoyatchilikka qarshi kurashish tuzilmalari rahbarlarining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston, Ozarbayjon, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va Turkmaniston ichki ishlar vazirliklari, shuningdek, MDHga a‘zo davlatlar hududida Uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfli jinoyatlarga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish byurosi delegatsiyalari ishtirok etdi.

Tadbirida so‘zga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy kriminal tahdidlarga qarshi kurashishda yagona yondashuvlarni ishlab chiqish hamda sa‘y-harakatlarni birlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanini ta‘kidladi.

Yig‘ilish kun tartibiga muvofiq MDH davlatlari hududida giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq yangi tahdidlarga qarshi ku-



rashish masalalari ham ko‘rib chiqildi. Xususan, «dorixona giyohvandligi» rivojlanishiga qarshi kurashish, narzikotiklar savdosiga xizmat qilayotgan internet-resurslar faoliyatiga chek qo‘yish choralari muhokama qilindi.

Ishtirokchilar dasturiy va texnik vositalarni takomillashtirish, tijorat tuzilmalari (internet provayderlari, banklar va boshqalar) bilan qo‘shma sa‘y-harakatlar olib borish zarurli-

giga alohida e‘tibor qaratdilar. Shuningdek, giyohvandlik vositalari savdosi kanallarini yo‘q qilish bo‘yicha innovatsion yechimlar yuzasidan tajriba va ma‘lumotlar almashildi.

Bundan tashqari, 2027–2030-yillarda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga qarshi kurashish sohasida MDHga a‘zo

davlatlar Ichki ishlar vazirliklari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi loyihasi ham ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilish natijalari MDHga a‘zo davlatlar ichki ishlar organlari faoliyati amaliy hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilganini ko‘rsatdi.

Radik TUMPAROV,
o‘z muxbirimiz.

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Men bu inson haqida ko'p o'yladim. Oxiri, bu odam haqida yozmasam, adolatdan bo'lmas ekan, degan qarorga keldim.

Yo'q, xushomad qilish niyatim yo'q. Nimaga xushomad qilaman? Yoshim bir joyga borgan bo'lsa, mukofot-u unvonlarni ham hech kimga likillamay olgan bo'lsam...

1

Bu islohotlar boshlanganda mamlakat qay ahvolda edi?

Odamlar qanday yashayotgan edi?

O'zimning boshimdan o'tkazganlarimni bir eslay.

Men ko'p qavatli uyda yashayman. Uymiz necha-necha qishlar bo'yi isimasdi. Bir farzandim keyinchalik «Shu uyda bir umr sovuq qotib ulg'aydik», deb esladi.

Nafaqaga chiqdim. «Ishlasang, nafaqangning yarmi to'lanadi», deyishdi. Nima deyman? Xo'p-da... Ko'pga kelgan to'y.

Maosh hemiri. Yarim pensiyaga qo'shib, oydan oyga arang yetkazamiz.

To'lov plastik kartasi bilan bog'liq mashmashalarni-ku, aytmay. Do'konga borasan. Kerakli molning narxini so'raysan. «Naqd olsangiz, sakson so'm, plastik karta bilan to'lasangiz, yuz...».

Denovda – bozorning naq o'rtasida «plastik kartadagi pulni naqdgga almashtirish punkti» ochildi. O'sha bezbet shaklda – yuz so'm yechib olishsa, sakson so'm qo'lingga berishadi. Eng dahshati, bu «punkt»ni bunday hollar yuz bermasligini nazorat etuvchi tashkilotlarning odamlari yuritdi. Dodingni kimga aytishni bilmaysan...

Bu lo'ttibozliklar butun xalq ko'z o'ngida ro'y berdi. Hech kim miq etolmadi. Qo'rquv. Bu qo'rquvdan yaralgan taqdir-sizlik – ertani o'ylashdan cho'chish – mudom yelkadan toshday bosib turdi.

Qarz ko'tardim. Dollarda qarz berganlarga dollarda qaytarib berish kerak. Bank kassalarining yoniga ham borolmaysan. Banklar dollarni sotuvga chiqarib, o'zi sotib olib yotibdi. Odamlarni qo'yib qo'ygan – allaqanday shang'i xotinlar...

Bozorga borasan. Har qadamda «dollarlar»lar shaykasi... Dollarning narxi rasmiy kursdan ikki barobar baland. Ko'r bo'lib olasan.

Surxondaryoda g'alla yetishtirgan bir tadbirkor menga uchrashib, g'allasini topshirganini, ammo haqini yeb ketishganini aytdi. Men bir-ikki amaldorga aytgan bo'ldim. Biror natija chiqmadi. Tadbirkor shu xo'rlikning jabridan o'lib ketdi...

U-bu joylardagi o'zgarishlar odamlarning dasturxoniga yetib kelmadi. Mamlakatni firibgarlar bosdi.

Bu ishga qarshi kurashishi zarur bo'lgan tashkilotlar davlat ichida davlat tuzdilar. Odamlar ustidan zo'ravonlik joriy etildi.

Masalan, Surxondaryoda xavfsizlik xizmati allaqanday fashistik (boshqa so'z ularning qilishini ifodalab berolmaydi) tizim o'rnatdi. Odamlarni pashsha o'rni-da ko'rmasdilar. Xo'rladilar, mulklarini tortib oldilar, misli ko'rilmagan qiynoqlarga soldilar, o'ldirib ham yubordilar. Qiynoqlarning Stalin zamonida kechgan usullarini qo'lladilar. Ularni yanada yangi «pog'ona»larga ko'tardilar.

– Tirnoqlarimni sug'urib oldilar, – deb zorillab eslaydi ularning qo'lga tushgan bir begunoh. – Hammasini baravar sug'ursalar ham mayli edi, har kuni bittasini sug'uradilar...

Hatto hokimlarga ham tazyiq o'tkazildi. Bu yurtda ular ham ishlashdan bezib qoldi. Noiloj ishdan ketish haqida ariza yozdilar.

Mustaqillikdan odamlarning ko'ngli qoldi.

Bitta-yarim tanishlar menga ham ta'na qila boshladi: «Ana siz orzu qilgan istiqbol...».

Rosti, men ham bebaxt yashadim. Gazeta-jurnallarda yozganlarimni nashr etish nari tursin, ism-familiyamni ham o'chirib tashlaydigan bo'lishdi. Men nima qilgan edim? Bir ko'rsatuvda «Birovlar harom-xarish yo'l bilan pul to'playapti. Payti kelgach, pulini ko'tarib, xorijga jo'nab ketadi» degan rost gapni aytgan edim, xolos. Bu ko'rsatuv tufayli televideniya haqida necha-necha ijodkorlar jazolandi, ishdan ketdi...

Tan olaylik, mustaqillikning ilk davrida yangi tizimli mamlakatni bunyod etish, nochorlikdan qutulish uchun bir qadar qattiqqo'llik ham zarur edi. Ammo

mamlakat rivojlanib borgani sari bu qattiqqo'llik o'rini adolat o'lchamlariga mos yo'riqlar asta-asta egallab borishi kerakligi ham barchaga ayon edi. Biroq bunday bo'lmadi. Chunki eng tepadagi odam ham nayrangbozlarning qo'lida asirday yashadi. Joylarda ro'y berayotgan, hatto o'z oilasida ro'y berayotgan voqealardan ham g'aflatda qoldi. Barcha adolatsizliklar sir tutildi.

Yuqorida yozganlarimni hech kim rad etolmaydi. Ularni bor bo'yicha ko'rsatish uchun esa necha jildlab kitoblar yozilsa bo'ladi. Men faqat boshimdan o'tkazganlarimning va tug'ilgan yurtim Surxondaryoda ro'y bergan mash'um voqealarning bir qisminigina eslayapman.

Avj olgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini hech kim bilmasdi.

Biroq Parvardigor bilguvchidir! U mamlakatni rivojlanish sari yo'naltirish uchun nima qilish kerakligini aniq bildi.

Mamlakat Prezidentligiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylandi va... birdan mo'jizalarga o'xshash hodisalar ro'y bera boshladi.

Aytib o'tganim – ko'rgiliklar bitta-bitta yechimini topib ketaverdi. To'lov plastik kartalari risoladagiday ishlay boshladi. Pensiyalar to'liq beriladigan bo'ldi. Banklar yangicha ishlash tizimiga o'tdi: xohlasalaring, mana so'm, istasalaring dollar, marhamat... Surxondaryodagi odam qiyofasidagi hayvonlar ham jazosini oldi. Ammo bu yechimlarni topish uchun qanchalar sabot va jasadot kerak bo'lgani faqat va faqat Shavkat Miromonovichning bir o'ziga ayon. Axir, qalamga olganim hodisalardan tashqari, uning zimmasida yana qancha-qancha tashvishlar bor edi.

Birgina Surxon xalqini zor qaqshatgan mustaqillikning zararkunandalarini shaykasini tugatish naqadar qiyin bo'lganini tasavvur qilaman. Axir, ular osmondan tushmagan – bu gumrohlarni Toshkentdagi martabasi baland, beli baquvvat, birovi nazar-pisand qilmaydigan homiylari qo'llab-quvvatlab turardi. Bu jinoyatchilar to'dasining ko'lami juda katta – bir-biri bilan zich bog'lanib ketgan, xalqning manfaati degan muqaddas tushunchani tushida ham ko'rmagan, odamlar hayotini xasdan ham arzon bilgan bedavolardan iborat edi. Avval mana shu to'daning boshi kesildi. Bu ish oson bo'lmadi. Bo'shangroq bir odam bo'lganda ular bilan murosai madora etib ketaverardi. Ammo Shavkat Miromonovich bunday qilishni o'ziga ep bilmadi. Chunki o'rtada Vatani, xalq taqdiri bor edi. Bo'lajak Vatanni bunday to'dalarga panja orasidan qarab emas, balki bu toifa noqislardan tozalab, pokiza niyat va ezgu harakatlar bilan yaratish lozimligini Shavkat Miromonovich mudom his etib turardi.

Vatanni halol odamlar yaratishini bu inson juda teran tushunadi.

Qotillik ilati yuqan bu kaslardan el-yurt ozod qilindi. Avval «tepa»dagi, keyin pastdagi qatlam ildizi bilan sug'urib tashlandi. Bu gaplar aytishga oson...

Mamlakatimiz tarixida ushbu voqealar kimgadir juda kichik epizod bo'lib tuyular, ammo Vatanni xalqning boshiga chiqib olgan bunday jirkanch to'dalardan ozod etish uchun rahbarimizga qanchalar matonat va qat'iyat kerak bo'lganini bir tasavvur qilib ko'ring!

Esimda: bu voqealar nihoyasiga yetkazilgach, Prezidentimiz Surxonga tashrif buyurib, «Surxondaryo xalqi, endi ozod-san!» deb elga murojaat etgan edi.

Haqiqatan, Surxondaryo erkin nafas oldi.

Men faqat yaxshi bilganim – Surxondaryo haqida yozayapman. O'zbekistonda esa o'n to'rtta ma'muriy-hududiy birlik bor. Prezidentimizning ulardagi muammolarni hal etishdagi mardonavor sa'y-harakatini qalamga olish uchun esa bu maqola kichiklik qilishini sezib turibman.

2

Odamlar yaxshilikka tez ko'nikadi. Bir-ikki «Yaxshi bo'ldi-ye!» deb quvonadi-yu, keyin xuddi hamisha shunday bo'lganday o'tib ketaveradi. Nazarimda, shunday bo'lgani ham durust! Odamlar odamga o'xshab yashashni o'rganyapti! Munosib yashash mo'jiza emas, shunchaki har kuni biz yuzma-yuz duch keladigan voqelik ekaniga ko'nikib boryapmiz-da!..

Ammo men rivojlanish jarayoni shu qadar jadal borayotganidan baribir quvonaman.

Avliyolar, olimlar maskani bo'lgan Termiz esimni bilganimdan buyon ko'rimsiz, chang-to'zonga qorishgan, soya-salqindan yiroq – yopiq harbiy shaharcha edi. Unga kirishning o'zi ham bir mashaqqat – harbiylarning posti o'rnatilgan, har bir yo'lovchining pasporti sinchiklab tekshirilgan, agar Surxondaryo hisobida bo'lmasangiz, o'tib ko'ring-chi!

Mustaqillikdan keyin esa, xabaringiz bor, bunday tekshiruvlar yanada avj oldi. Endi har bir viloyat o'rtasida sun'iy to'siqlar – postlar o'rnatildi. Bu holat xalqimizning mamlakatimiz bo'yab erkin harakatlanishiga xalal beradigan ortiqcha mashmasha

RIYOSIZ



Usmon AZIM,
O'zbekiston xalq shoiri

edi. Pasportni unutmagan bo'lsangiz, bu postlardan o'tishning yagona yo'li – imkonini topib, «posbon»larga pora berish edi... Boshqa ilojingiz yo'q. Nazarimda, bu postlar xuddi shunday vaziyat yaratish uchun qo'yilgan tuzoq edi...

Surxondaryoda esa bu holat yo'lovchini jiddiy tahlikaga soladigan darajada murakab edi. Viloyatga kirishda – Darband postida xuddi xorijga ketayotganingiz kabi bor-yo'g'ingiz tintilar, yuklaringiz esa lentaga solinib, lazerli uskunalar yordamida ko'zdan kechiriladi. Bu ham yetmagan-dek, jomadon-u sumkalar ham ochdirilib, tekshiriladi... Tintuv. Xullas, pora bermasangiz, qutulib bo'psiz. Termizga va Sariosiyoga kiraverishda yana shu holga duch kelinar edi.

Bu to'siqlarning hammasi Shavkat Miromonovichning bir shashti bilan yo'q bo'ldi.

Chang-u g'uborga qorishgan Termiz ham birdan o'zgara boshladi.

Hozir bu shahar ko'chalarining ikki chetida manzarali daraxtlar soya tashlab turibdi. Ketguncha yam-yashil chimzor. Gullar ajib did bilan ekilgan. Yaqinda mehmonxonadan mashinada chiqib, mana shunday go'zal – bir qarich ham uzilmagan manzarani oralab, aeroportgacha bordim. Xorijiy kurort shaharchalarni eslatadi. Yangi qurilgan shinam, ko'rkam imoratlar ham yarashli. Menga o'qituvchilardan biri «Odamlarning uy-joyga ehtiyoji to'liq ta'minlangan, bir xonadonda ikki-uch oila tiqilib yashashdan qutulgan», deb qoldi. Amaldor emas, o'qituvchi aytdi!

Termiz esa o'syapti. Baland-baland binolar qad ko'taryapti. Hatto shahar erkin nafas rostlab, tiqilmay kengayishi uchun qo'shimcha yerlar kerakligi ko'zga tashlanib qoldi. Shavkat Miromonovich bu masalani ham hal qilib berdi – shaharga qo'shimcha joylar ajratildi.

O'quvchida «Surxondaryoda faqat Termiz gullab-yashnayotgan ekan» degan taassurot qolmasligi uchun aytib qo'yay, viloyatlardagi barcha tumanlar o'zgaracha

qiyofa kasb etgan. Chamasi, besh-olti yil avval bir guruh san'atkorlar bilan Surxonning shimoliy hududlari sari ketayotgan edik. Yo'lda bir zum chalg'ibman. O'zimga kelib qaragam, bir notanish shaharning yonidan o'tyapmiz. Ko'p qavatli uylar, orasida orasta yo'laklar, daraxtlar, bolalar o'ynaydigan maydonchalar lip-lip o'tadi. Qayerga kelib qoldik? Surxondaryoning har bir qarich yerini bilaman. Nahotki, tush ko'rayotgan bo'lsam? Bir oz yurgach, angladim: bu – Denov. Ha, o'zim boshdan-adoq kezib-bilib yurganim Denov! Ey Xudo! Bu shahar ichidagi shahar – mo'jiza qachon, qanday barpo bo'ldi? Shuncha tezmi? Angladim – bu mo'jiza Prezidentimizning shijoati tufayli bunyod bo'lgan! So'ng tasavvur qildim: mamlakatda qancha

tuman bor, qancha shahar bor, boringki, mahallalar bor.... Barchasida mana shunday bunyodkorlik ketayotgan bo'lsa kerak-da! Ketyapti!

Butun mamlakatda bunday yoppa bunyodkorlikni qaysi qudrat harakatga keltiryapti? Bu savolga javob aniq: Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!

3

Men majlislarda kam qatnashaman. Maqsad majlis o'tkazishdangina iborat bo'lgan yig'inlardan o'zimni tortaman.

Ammo yaqin kunlarda ikki majlisda qatnashib, vaqt qanday o'tganini sezmadim. Zavqlanib o'tirdim. O'zbekistonni sevadigan bir vatanparvar sifatida faxr-u quvonchga to'ldim. Gap Vatanimizning bir bo'lagi bo'lgan Surxondaryoning ertasi haqida ketdi. Prezidentimiz viloyatda 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan rejalar haqida so'zladim.

Majlisda rejalar haqida shunchaki gapirilmadi, balki uni amalga oshirish uchun puxta, ko'lamlil va aniq tayyorgarlik ko'rilgani ma'lum bo'ldi. Masalan, mana bu tarzda: reja loyihasi tayyor, mablag' bor (bank boshlig'i tasdiqlaydi yoxud jahondagi qaysi investor bilan kelishilgani aytiladi), bu rejani amalga oshiradigan tashkilot ham shay turibdi. Ishni qachon boshlash sanasi ham avvaldan aniqlangan. Mutasaddilar yana bir bor majlis ahli oldida axborot berdi. Har bir loyihada qancha ish joyi ochilishi ham ochiq-ochiq borildi. Yuzlab, minglab...

Har bir reja haqida so'z ketganda, shu tartib amalga oshirildi. Biror-bir ishni bajarish orzu sifatida aytilmadi. Aksincha, qat'iy ishonch bilan axborot berildi.

Bu rejalarining bir uchi xorijga borib qadalganda esa onlayn tarzda majlisda qatnashayotgan elchilarimiz chet ellik hamkorlar hozir turganini, O'zbekistondan imo bo'lgach, shu zahotiyoch uchib borishini ma'lum qildi. Xorijlik hamkorlar ham unday-bunday mamlakatlardan emas – Xitoydan tortib Janubiy Afrika Respublikasigacha!

Shavkat Miromonovich hech narsani unutmadi. Prezidentimiz bugun nima ishlarini bajarish lozimligini, ertaga nimani amalga oshirish kerakligini ichki – ongosti tuyg'u bilan his qilishini shundoq sezib turdim.

Kattay-u kichik muammolarning yechimini topishda bir xil mas'uliyat bilan yondashishiga, ba'zan badihalariga ham guvoh bo'ldim.

Majlisdan avval boysunlik – kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni Toshtemir polvon Muhammadiyev bilan yosh kurashchilar uchun ochilgan internat haqida suhbatlashgan edik. Majlis so'ngrog'ida Prezidentimiz ana shu polvonga murojaat qilib qoldi:

– Sening internatning maktabi yo'g'-a?

– Yo'q, – dedi polvon.

– Bolalar qayerga o'qishga boradi?

– Shu atrofdagi qishloqlardagi maktablarga.

Shavkat Miromonovich ko'zi bilan zaldan kerakli odamni izlab topdi:

– Puling bor-a?

– Ha, – deb o'rnidan qo'zg'aldi «kerakli odam».

– Shu polvonning internatiga maktab qurib berolasanmi?

«Kerakli odam» jon deb rozi bo'ldi.
– Birinchi sentabrgacha tayyor bo'lsin!
– dedi Prezidentimiz.

Zavqlanganimdan sekingina bo'lsa-da «Voya», deb yubordim. Axir, Shavkat Miromonovichning yelkasida qariyb o'ttiz to'qqiz million nufusli xalqning tashvishi turibdi! Mamlakatda eh-he qancha maktab bor! Endi kelib-kelib, Prezidentimiz Toshtemir polvonning maktab-internati muammosini eslab o'tirsa!..

Yig'inda menga ham so'z berildi va men bu majlisi surxondaryoliklar uchun bayram deb atadim. Chunki tushunishimcha, Vatan degan muhtasham imorat rivoji uchun qo'yilgan har bir g'isht – bayram. Bugun esa qanchadan-qancha g'ishtlar qo'yildi!

bo'lsa ham mayli, sharhlab qo'yay: «Dunyodamlari, – deydapti shoir, – bilib qo'ying: dushmanlik yaxshi ish emas. Bir-biringiz bilan do'st bo'ling, insonga faqat do'stlik yarashadi».

Shavkat Miromonovich, nazarimda, hali Prezidentlik lavozimiga saylanmasdan oldin ham «dushmanlik» ish emas» ekanini chuqur tushungan. Markaziy Osiyodagi qondosh-jondosh mamlakatlar o'rtasida avj olgan noxushliklarni yuragi achishib kuzatgan. U boshqargan Vazirlar Mahkamasining vazifasi xo'jalik yuritish bo'lgani uchun qo'shnilar bilan munosabatimiz yomonligi tufayli rivojlanish imillayotganini teran his qilgan. Eng muhimi, bu g'alvalardan odamlar ham azoblanayotganini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

nalarimiz raqami O'zbekistonni-da! Tojik do'stlarning javobi meni hayron qoldirdi:
– Har qanday tezlikda haydayveringlar! Milisalar to'xtatmaydi! Prezidentimiz «O'zbeklar mening mehmonim – ularga hech kim teginmasin», deb yuqori minbarda aytgan!

Qalay?
Bu gaplar o'zbek xalqiga hurmatning eng cho'qqisi edi.

Ikki xalq o'rtasidagi bu izzat-hurmatning qaytishi, yanada yuqori darajaga ko'tarilishi Shavkat Miromonovichning jonkuyarligi, samimiy – diplomatik mahorati va insoniy fazilatlarini bilan bog'liq edi.

Yaqinda atoqli o'zbek shoiri Shavkat Rahmon tavalludining 75 yilligini nishonlash uchun O'sh shahriga bir guruh ijodkorlar bilan yo'lga chiqdik. Ilgari ham O'sh safarida bo'lganman. Chegara mashmalarini o'ylab, ko'nglim xijil bo'lib borayotgandim. Ammo bezovtalikka o'rin yo'q ekan. O'zbekiston fuqaroligiga oid hujjatlarimizni ko'rsatib, bemaol o'tib ketaverdik. Qirg'izlar ham yurtimizga shunday kirib kelyapti.

Bu bemaollikni yaratgan, ikki xalq o'rtasida ishonch va haqiqiy do'stlikni qayta barpo etgan insonlarni alqadik. Axir, bu ikki qo'shni xalq o'rtasidan nimalar o'tmagan edi!

Shavkat Rahmonning yubileyiga bag'ishlangan ijodiy kecha nihoyatda baland saviyada o'tdi. Majlisda Qirg'iziston hukumati bosh kotibi, nufuzli TURKSOY tashkiloti rahbari, O'sh shahri hokimi qatnashdi va nutq so'zladilar. Shavkat Rahmon o'qigan maktabga va shaharning katta ko'chalaridan biriga shoir nomi berildi.

Albatta, bu katta shoir shunday ehtironga arziydi. Shubha yo'q. Ammo baribir bu samimiy ehtiroمنىning sababchisi Shavkat Miromonovich ekanini ham har daqiqada his qilib turdik.

Kamina Qozog'iston safarida bo'lganimda do'stlarning xuddi shunday mehri uch keldim. Bir emas, bir necha mukofot bilan taqdirlandim. Hatto xorijiy bir mamlakatning adabiy mukofoti ham qozoq do'stlarimizning tavsiyasi bilan menga topshirildi. Agar munosabatlarimiz avvaldagiday g'arazli kechganda, shunday hol ro'y berarmidi?!

Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi bu ittifoqchilikning, bag'rikenglikning va mehr-u muhabbatning bosh me'mori Shavkat Miromonovich ekanini hozir barcha ko'rib turibdi. Xorijliklar ham bu mintaqani rivojlantirish sari boshlab boradigan kuch sifatida O'zbekistonga qaramoqda.

Men, asosan, azaliy yaqin qo'shnilarimiz bilan munosabatlar haqida yozdim. Har kuni o'zgarayotgan bu chigal dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarimiz ham aytishga arzigulik ekanini ta'kidlab o'tmoqchiman. Masalan, Afg'oniston bilan yetarli darajada aloqalar o'rnatganmiz. Axir bu mamlakat orqali okeanlarga chiqish orzumiz bor!.. Hozir shundoq Amudaryodagi ko'prikdan o'tib, o'zbek tuprog'iga qadam qo'yilgan joyda «O'zbekiston – Afg'oniston chegarasi oldi savdo hududi» buniyod etilgan. Qator-qator do'konlar, mehmonxonalar, oshxonalar... Savdo-sotiq avjida. Hudud to'lib-toshib ketyapti. Prezidentimiz bu hududga yana qo'shimcha yer ajratish haqida topshiriq berdi.

Albatta, bu yon qo'shnilarimiz ham O'zbekiston rahbari sha'niga iliq so'zlar aytgani-aytgan...

Dunyoda haqiqiy obro'ga ega bo'lish oson ish emas. Bu rutbaga iste'dodli, o'zini ayamay mehnat qiladigan, farosatli, boshqalarning ham manfaatini hurmat etadigan, o'z mamlakatini ham jonidan yaxshi ko'radigan siyosiy arboblarga sazovor bo'ladi.

Mana shunday obro'ga ega bo'lganlardan biri esa bizning Prezidentimiz – Shavkat Miromonovich! Ha, o'zimizning Prezidentimiz!

5
Mamlakatimizdagi o'zgarishlarning oqimi juda katta. Ularning hammasi «Men – o'zbekman!» deganlarni quvontiradi.

Masalan, keyingi oylardagina ro'y bergan qator yangiliklar hali-hanuz meni hayratga solib kelyapti.

Agar ikki-uch yil avval birov «Barchamizning jonimizga tekkan shu paxtadan sakson-to'qson syentnerdan hosil olinadi»,

desa, kamina «Qo'ysang-chi», deb kulishi aniq edi. Ammo xuddi shunday bo'ldi! Yana qayerda deng? Sirdaryoda! Bu viloyatda talabaligimda paxta terganman. O'rtacha yigirma syentnerdan hosil olinsa, do'ppi osmonga otildirdi! Endi esa... Odam ishonmaydi. Hatto dehqonlarning o'zi ham chanoqlar boshdan-adoq ochilgan paxtazorga qarab, hayrat bilan gapirganiga guvoh bo'lganman. Xorijdan urug'lik keltirildimi? Keltirildi. Ammo o'zimiz ham qarab turganimiz yo'q. «Porloq» navli g'o'zamiz xorijiy navlardan ortiq bo'lsa ortiq, lekin kam emas!

Bir jumla bilan aytilganda, paxtachilikda inqilob ro'y berdi!

Hayratlanarli yana bir voqea.

Olmaliqda 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi. Bunday fabrikalar qurilib, ishga tushirish jarayoni butun jahonda o'n yilga cho'zilar ekan. Bizda esa to'rt yilda (ha, to'rt yilda!) amalga oshirildi. Bu muddatga hatto o'zimizning eng katta mutaxassislar ham, amerikalik hamkor ham ishonqirmagan ekan. Mana shu amerikalik endi butun jahonni O'zbekistonning bu tezkor tajribasini o'rganishga chaqirdi.

Yana bir hayrat. Faqat men emas, hali o'zbeklarning necha-necha avlodi g'ururlanadigan mo'jiza – Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi. Bu markaz ajib did bilan qurilgan koshona. Devorlarida qo'l bilan ishlangan naqshlar, butun dunyodan yig'ib kelingan – ilgari o'zimizdan olib chiqib ketilgan noyib eksponatlar, Usmon Qur'oni, qadimiy qo'lyozmalar... Ularni namoyish etish uchun eng zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishi...

Shavkat Miromonovich markazning qurilishi haqida qiziq tushuntirish berdi: «Bu markazning qurilishida shoshmadik. Sakkiz yilda oxiriga yetkazdik...».

Bu izoh menga juda yoqdi. Chunki navbatdagi bir imorat emas, balki san'at asari qurilayotgan edi! San'at asari yaratilishiga xuddi shunday sabr-toqat bilan yondashiladi! Prezidentimiz mana shu noziklikni anglagan!

Xullas, asrlarga tatigulik inshoot dunyoga kelgan.

Men internetda bu mo'jizani tomosha qilish uchun borayotgan ikki kishining suhbatini eshitdim.

– Sen, – dedi ularning biri imorat bor bo'yicha ko'ringach, – Tojmalalni ham ko'rgansan. Qaysi zo'r?..

– Bu zo'r-ov, – dedi hamrohi binoga nazar tashlab. So'ng ishonch bilan bir qarorga keldi. – Bu zo'r!

Tamom, vassalom! Bu zo'r!
Bunday bunyodkorliklar haqida yoza-versam, ado bo'lmaydi shekilli.

Bugun internetni ochdim. Mana, tilga olingan yangiliklar: Toshkentdan Xorazmga yo'l olgan «Jaloliddin Manguberdi» tezyur-rar poyezdi, Toshkent viloyati markazidan Bekoboddan aylantirilib, Yangiyerga boradigan yangi 111 kilometrli yangi temiryo'l qurilishi, Samarqandga boradigan yangi tezkor yo'l, Toshkentdagi yangi aeroportdagi asosiy ishlarning boshlanishi...

Nazarimda, hayratlarimning endi cheki bo'lmaydi.

So'ngso'z o'rnida

Sport ishqiboziman. Ishqibozligimni biladigan Xayrulla degan jurnalist ukam – to'qsoninchi yillarning oxirida bo'lsa kerak, futbol gazetalaridan biriga intervyu olib qoldi.

– Mana, Yaponiya futbol jamoasi jahon chempionati finaliga yo'llanma oldi, – dedi u. – Biz qachon jahon chempionatiga chiqamiz?

– Endi, – dedim men atrofimdagi voqeliklarni bir zum ko'z oldimga keltirib, – mamlakatimizning Yaponiyaga mengzab rivojlanishini kutamiz-da, ukam.

Orzumizga erishdik. Futbolchilarimiz final yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Demak... Yaponiyaga mengzab ketyapmizmi? Shunga juda o'xshaydi. Har holda rivojlanishimiz sur'ati kunchiqar yurtnikidan ancha baland.

Ishonchim komil, shunday bo'ladi!
Chunki Vatanimizning bugunini va ertasini yaratishga vatanparvar, xalqparvar, ishbilarmon va adolatli inson bel bog'lagan!

«Yangi O'zbekiston» gazetasining 2026-yil 12-may sonidan olindi.

SO'ZLAR

Bu majlisda aytilgan va kelgusida amalga oshiriladigan har bir reja yurt xazinasi qanchalar boyishi, odamlar xonadoniga qanchalar fayzu baraka olib kirishi haqidagi raqamlarni eslab o'tirmayman. Chunki ular matbuotda yetarlicha yoritildi.

Ammo bir qutlug' xabarni aytmagan bo'lmaydi.

Yigirma oltinchi aprelda Boysunga boradigan bo'ldim.

Termizdan keladigan yo'l manzilga olti-yetti kilometr qolganda yuqoridagi majlisda tilga olingan – bir necha yillardan buyon qurilishi davom etayotgan Darband – Denov trassasiga qo'shiladi. Biz bo'lajak trassaga tushdik. Pishiq qilib ishlangan beton yo'l. G'izillab ketyapmiz. Faqat ikki joyda gavarasi ko'tarilib, qurilishi nihoyasiga yetmagan ko'priklarni aylanib o'tdik, xolos. Ichimda «Bir-ikki oyda bitib qolar», deb o'yladim.

To'rt kundan keyin «Boysun bahori» festivalida qatnashish uchun shu yo'ldan yana o'tishga to'g'ri keldi. Bu safar mashinamiz tayyor bo'lgan ko'priklar ustidan g'izillab o'tib ketdi! Ha, tayyor bo'lgan ko'priklar ustidan! Oradan faqat to'rt kun o'tib!.. Yana ruhimni quvonch seli bosdi! Qoyil! Va Termizdagi majlisda aytilgan barcha rejalar o'z muddatida bajarilishiga ishonchim komil bo'ldi.

Prezidentimiz yig'in so'ngida shu taxlit rejalar bilan barcha viloyatga va Qoraqalpog'istonga borilishini ta'kidlab o'tdi! Yana mamlakat kelajagini barpo etish yo'lida ommaviy jadal harakat! Bir zum bo'shshamaydigan, el dasturxoniga baraka beradigan rejalar. Bu rejalarining asoschisi Shavkat Miromonovich ham bir zum tinim bilmaydigan, mudom xalq manfaatini uchun kuyib-yonadigan inson! Ezgu niyatlariga farishtalar omin deydi! Parvardigor rahmat eshigini ochadi!

Men yaqin kelajakda yurtimizning eng ilg'or mamlakatlar qatoridan o'rin olishiga ishonaman. Bu ishonchimga qo'shil-maydiganlar bo'lsa, Jahon bankining O'zbekistonning rivojlanish sur'ati haqidagi raqamlariga murojaat etsin. Bank 2026-yilda mamlakatimiz yalpi ishlab chiqarishi sur'atini 7,7 foiz etib, prognoz beryapti. Xorijlik mutaxassislar fikricha, o'n-o'n ikki yildan keyin O'zbekistonning yalpi ishlab chiqarishi trillion dollardan oshar ekan! Trillion! Bular osmondan olingan emas, aniq faktlar tahlili asosida yuzaga kelgan raqamlar! Ko'z tegmasin!

Uzr, xorijlik mutaxassislarni ham xijolat etib qo'yyapmiz! Yuqoridagi raqamlarni yozgandan keyin hozirgina o'qib qoldim: o'sishimiz sur'ati ularning taxminidan juda yuqori – 8,7 foizdan ziyod ekan!

4

Dunyoning ulug' donishmandlari insoniyatni tutib turgan qadriyatlar haqida oxir-oqibat yagona xulosaga kelgan. Insonlar, xalqlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga o'zi ham aralashib, nene g'avglarni boshdan o'tkazgan Alisher Navoiy bir kuni mana bunday satrlarni bitgan:

Olam ahli, bilingizkim,
ish emas dushmanlik,
Yor o'lung bir-biringizgaki,
erur yorlig' ish.

Bu bayt ma'nosini barcha anglab turgan

Albatta, shunday bo'lgan! Shu bois, Shavkat Miromonovich mamlakat boshqaruvchi jilovini o'z qo'liga olgach, bir zum tin olmay, avvalo, qo'shnilar bilan qardoshlik-qarindoshlik rishmalarini tiklay boshladi. Bu ish qancha og'ir-yengil kechgani faqat shu ezgu niyatli odamning o'ziga ma'lum. Ammo natija qutlug' – qo'shni mamlakatlarga yo'limiz tushsa, O'zbekistonning bir fuqarosi sifatida biz ham izzat-hurmat ko'ryapmiz.

Surxondaryo viloyati uchta mamlakat bilan chegaradosh. Sho'rolar davrida, masalan, Tojikiston bilan O'zbekiston o'rtasida chegara bor-yo'qligi esimizga ham tushmasdi. Termiz yopiq shahar bo'lgani uchun Dushanbega ham uchib borib, Surxonga o'tib ketaverdik. Ba'zilar kattaroq bozor-o'charini Dushanbega borib qilardi... Ammo mustaqillikdan keyin bir muddat o'tgach, hamma o'ziga xon, o'ziga bek bo'lib oldi. Chegaradan o'tish ushalmas orzuga aylandi!

Hozir tarixga aylangan boshg'riq bu kunlardan bir shingil voqeani kuni kecha hikoya qilib berishdi. Sariosiyoda yashaydigan bir kexsa ayolning Regardagi singlisi vafot etganda jigarining qabirini ziyorat etish uchun sakkiz yil urinib, chegaradan o'tolmagan ekan. Regar bilan Sariosiyoning orasi, ha boringki, yarim soatlik yo'!

Ikki mamlakat o'rtasida do'stlik-birodarlik munosabatlari o'rnatilgach, qarindoshlar bu uzoq ayriliqdan so'ng yig'lab-siqtab yuz ko'rishdi. Dushanbedan shuvillab mashinalar Surxondaryoga keladigan, uch-to'rt sariosiyolik do'stlar «Dushanbeni bir aylanib kelaylik», deb yo'lga chiqadigan bo'ldi. Bir qadam yo'! Ertalab borib, kechqurun qaytib kelasiz!

Tojikistonda boshqa hududlar, qo'yingiki, jahon bilan bog'lovchi asosiy yo'llar yurtimiz orqali o'tadi! Endi bunday imkoniyatlarga ega tojik xalqining xurramligi nechog'liq bo'lganini tasavvur eting!

Shu sababdan Shavkat Miromonovich bu qo'shnilarimiz yurtiga tashrif buyurganda, Emomali Rahmon sahnadan turib, hazil aralash juda zo'r lutf etgan edi: «Bular, – dedi u zalni to'ldirib o'tirgan tojik xalqi vakillariga ishora etib, – sizni mendan ham ortiq yaxshi ko'radi!». Mana hurmat! Mana qardoshlik!

Prezidentimizning bu tashrifidagi so'ng bir muddat o'tgach, besh-olti yozuvchi jam bo'lib, Dushanbega bordik. Maqsadimiz Boysunda tug'ilgan do'stimiz, Tojikiston xalq yozuvchisi Sattor Tursun vafoti munosabati bilan yaqinlariga hamdardlik bildirish edi. Yoz kunlari. Egnimizda yozlik engil-bosh... Aeroportda esa bizni o'n-o'n besh chog'li kishi – oppoq ko'ylak, qora kostyum-shim kiygan tojik do'stlarimiz kutib oldi. Ertasi kuni kutilmaganda Tojikiston Yozuvchilar uyushmasida qardosh adabiyotlarimiz aloqalari haqida konferensiya o'tkazildi. Yana hamma o'sha rasmiy kiyimda. Ko'chada esa yoz... Birodarlar, bu tarzda majlisning nomini izzat-ikrom deydilar! O'zbeklarga izzat-ikrom!

Bizni Surxondaryoga olib ketgani yurtimizdan og'aynilar keldi. Men yo'lda qanday ketsak bo'ladi, avtomobillarni haydovchilar qaysi tezlikda haydasa ma'kul, milisalar to'xtatsa, qanday muomala qilish kerak deb so'rab qoldim. Har holda mashi-



Ma'naviy-ma'rifiy tadbir

QAHRAMONLAR YODI BARHAYOT

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida xizmat burchini o'tash chog'ida mardlarcha halok bo'lgan xodimlarning yorqin xotirasiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda ichki ishlar organlari tizimi faxriylari, marhumlarning oila a'zolari, professor-o'qituvchilar, kursantlar, akademik litsey va ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilari qatnashdi.

Tadbir avvalida akademiya boshlig'i, polkovnik Rustam Xatamov so'z olib, ichki ishlar organlarida xizmat qilishning sharaflari va mas'uliyatli jihatlariga alohida to'xtalib o'tdi. Har bir inson, avvalo, ona Vatani oldidagi mas'uliyatini chuqur his qilishi, yurt himoyasi uchun doimo shay turishi, qayerda bo'lmasin,



yuksak daxldorlik va fidoyilik hissi bilan yashashi lozimligini qayd etdi.

Xotira kechasida milliy davlatchiligimizni mustahkamlash yo'lidagi mashaqqatlar, osuda hayotimizga ko'z tikkan g'araz niyatli kimsalarga qarshi mardonavor kurashgan

ichki ishlar organlari xodimlarining umr yo'li va ibratli fazilatlarini yodga olindi.

Iste'fodagi general-mayorlar – Tohir Mullajonov va Mirsamad Adilov o'z xotiralari bilan o'rtoqlashar ekan, taqdir chorrahalari yelkama-yelka xizmat qil-

gan hamkasblarining mardligini e'tirof etdilar. Ayniqsa, surxondaryolik marhum Ahmad Qurbonovning ukasi Asror Qurbonovning samimiy so'zlari yig'ilganlar qalbinin junbishga keltirdi: «Akademiya ostonasiga qadam qo'yishim bilan yuragimni

ajib bir his chulg'adi. Rahmatli akamning ushbu daroghda o'tkazgan yoshlik onlari, leytenant unvonini olgan baxtiyor kunlari va ko'rkam formada mag'rur yurishlari ko'z oldimda gavdalandi. Afsuski, bevaqt o'lim ularni oramizdan erta olib ketdi, biroq akamdan o'chmas nom va jasoratga to'la xotira qoldi».

Tadbir doirasida Akademiya rahbariyati tashabbusi bilan chop etilgan «So'nmas jasorat» kitobining taqdimoti ham o'tkazildi. Toshkent militsiya maktablari va IIV Akademiyasini tamomlab, xizmat paytida halok bo'lgan hamkasblarning umr yo'ligha bag'ishlangan ushbu majmua xayrli ishlarning amaliy ifodasi bo'ldi.

Jamshid XOLOV,
mayor.

12-may — Xalqaro hamshiralar kuni

MEHR VA SADOQAT
E'TIROFI

IIV Markaziy poliklinikasida 12-may — Xalqaro hamshiralar kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirni poliklinika rahbari, podpolkovnik Sayyora Qilicheva kirish so'zi bilan ochib, barcha hamshiralarni kasb bayrami bilan samimiy muborakbod etdi.



— Bu sharaflari kasbda sadoqat bilan xizmat qilish har kimga ham nasib etavermaydi. Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolari salomatligini asrash yo'lidagi zahmatli va mas'uliyatli mehnatingiz uchun barchangizga minnatdorlik bildiraman, — dedi u.

Shundan so'ng namunaviy mehnati, kasbiga sadoqati hamda ko'p yillik samarali xizmati bilan jamoaga o'rnak bo'lib kelayotgan bir guruh tibbiyot xodimlari esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Taqdirlanganlar orasida laboratoriya bo'limi laboranti Dilmora Yuzboyeva ham bor. U qariyb 20 yildan buyon mazkur muassasada samarali mehnat qilib kelmoqda.

— Bugungi e'tirof men uchun katta faxr. Insonlar salomatligi yo'lida xizmat qilish — hayotim mazmuniga aylangan. Bu e'tibor va g'amxo'rlik har bir tibbiyot xodimini o'z kasbiga yanada mas'uliyat bilan yondashishga undaydi, — dedi u hayajon bilan.

Tadbir bayram dasturiga ulanib ketdi.

Samimiy va ko'tarinki kayfiyatda o'tgan tantana ishtirokchilarga unutilmas taassurotlar bag'ishladi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Ikrom HASANOV
olgan surat.

Ichki turizm

«O'ZBEKISTON BO'YLAB
SAYOHAT QIL!»

Ichki turizmni rivojlantirish dasturi doirasida IIV huzuridagi JIEDning Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari hamda koloniyalari boshliqlari va ularning oila a'zolarining Toshkent shahriga sayohati tashkil etildi.



Sayohat davomida ular poytaxtimizning Zarqaynar ko'chasi bo'ylab sayr qilishdi. Qadimiylilik va zamonaviylilikni uyg'un holatda o'zida mujassam etgan maskan barchada katta taassurot qoldirdi. Shundan so'ng Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lishib, bu yerda saqlanayotgan noyob qo'lozmalar, tarixiy eksponatlar va zamonaviy ko'rgazmalar bilan yaqindan tanishdilar. Ayniqsa, ajdodlarimizning ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan ulkan hissasi hammani hayratga soldi.

Shuningdek, xodimlar va ularning oila a'zolari «G'alaba bog'i» hamda «Shon-sharaf» muzeyiga ham tashrif buyurdilar. Bu yerda mardlik va jaso-

rat ko'rsatgan ajdodlarimizni yodga olishdi, Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatilgan qahramonlik lavhalarini yaqindan tanishdilar. Muzey eksponatlari va bog' hududidagi tarixiy yodgorliklar ularda Vatanga muhabbat, milliy g'urur va fidoyilik tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, sayohat xodimlar va ularning oila a'zolari uchun nafaqat madaniy hordiq, balki Vatan tarixi, milliy qadriyatlar va ajdodlar merosiga bo'lgan hurmatni yanada kuchaytiruvchi muhim ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'ldi.

O'z muxbirimiz.

Ибрат мактаби

ҲАЁТИЙ ТАЖРИБАГА ТАЯНИБ

Булоқбошилиқ истеъфодаги майор Акмалжон Алиакбаровнинг меҳнат фаолияти оддий қишлоқ муҳитида бошланиб, масъулиятли хизмат ва эл ишончини қозониш сари йўналган. Бу йўлда у ўзини нафақат ҳуқуқ-тартибот тизими ходими, балки ҳақиқий тарбиячи сифатида ҳам намоён эта олди.

Акмалжон Алиакбаров асли Найман қишлоғида туғилиб-ўсган. Ўқувчилик йилларидаёқ интизомлиги, билимга чанқоқлиги ва масъулиятлиги билан тенгдошлари орасида ажралиб турган. Кейинчалик Андижон давлат университетида олган билимлари ва ҳаётий қарашлари унинг шахс сифатида шаклланишида муҳим ўрин тутди. Она қишлоғига қайтган ёш мутахассис ўзининг илк фаолиятини мактабда ёшларга кимё фанидан дарс бериб, уларни илмга, фикрлашга, ҳаётга тўғри қарашга ўргата бошлади.

Туман ИИБ вояга етмаганлар билан ишлаш бўйича инспектори лавозимига таклиф этилганида, бу масъулиятни чуқур англаган ҳолда розилик билдирди. Чунки бу соҳада ёшлар билан ишлаш, уларни тўғри йўлга йўналтириш борасида ўз режаларини кенгроқ

амалга ошириш имкониятини кўрарди. Шу тариқа, 2001 йилдан бошланган ички ишлар органларидаги хизмат фаолияти унинг иродасини янада чархлади, масъулият ҳиссини кучайтирди. Акмалжондаги ғайрат, шижоат ва ташаббускорлик қисқа вақт ичида ўз самарасини берди. Ҳар бир ишга жиддий ёндашув, одамлар билан ишлашдаги мулоҳазакорлик, айниқса, ёшлар билан мулоқотдаги сабр-тоқат унинг обрўсини оширди.

2007 йилда Акмалжонни «Найман» МФЙ профилактика инспектори лавозимига тайинлашди. Бу эса ундан янада кенг қамровли ишлашни, аҳоли билан яқин мулоқотда бўлишни, жиноятчиликнинг олдини олишда тизимли ёндашувни талаб этарди.

Акмалжон Алиакбаров бу ишни ҳам муносиб удалай олди. Хизмат фаолияти давомида бир қатор жиноятларни фош



Суратда: истеъфодаги майор Акмалжон Алиакбаров (ўртада) ҳамкасблари билан.

этишда фаоллик кўрсатди. Айниқса, 2010 йилда Охунбобоев маҳалласида рўй берган мудҳиш жиноятнинг очилиши унинг касбий маҳоратини яна бир бор намоён этди. Ер талашуви туфайли юзага келган низо оқибатида жиян ўз тоғасини ўроқ билан ўлдирган бу фожиали ҳолатни атиги тўрт

кун ичида фош этишга муваффақ бўлди. Бу унинг тезкорлиги, таҳлил қилиш қобилияти ва ишга бўлган сидқидилдан ёндашувининг натижаси эди.

2017 йилда пенсияга чиққан лавҳамиз қаҳрамони бугунги кунда Булоқбоши туманидаги 17-мактабда илмий бўлим мудир сифатида хизмат қил

моқда. Бу ерда у нафақат ўқув жараёнини ташкил этиш, балки педагогик жамоани тўғри йўналтириш, ёш ўқитувчиларга маслаҳат бериш, таълим сифатига эътибор қаратиш каби вазифаларни сидқидилдан бажармоқда.

– Ички ишлар органларидаги фаолиятим мени ҳаётга янада жиддий қарашга ўргатди, – дейди истеъфодаги майор Акмалжон Алиакбаров. – Ҳозир ўқитувчиларни таълимга тўғри йўналтириш орқали ўқитиш сифатини оширишга ҳаракат қилмоқдаман.

Унинг ҳаётий тажрибаси, интизомга асосланган қарашлари ва инсонпарварлик тамойиллари ўз аҳамиятини йўқотмаган. Ёш авлод тарбиясида ўзининг хизмат йилларида шаклланган қатъият, адолат ва масъулият каби фазилатларини устувор деб билади. Шу жиҳатдан у нафақат ўқувчилар, балки бутун жамоа учун ибрат намунаси ҳисобланади.

**Саминжон
ҲУСАНЗОДА,
ўз мухбиримиз.**

Андижон вилояти.

«Issiq izida»

QIMORXONALAR FOSH ETILDI

Insoniyat tarixida qimor har doim bo'lgan. Qadimiy tosh o'yinlaridan tortib, zamonaviy onlayn kazinolargacha tabiati o'zgar-madi: u kishini sehrli jodudek o'ziga chorlaydi. «Men taqdirdan ustunman!» degan yolg'on tuyg'u insonni domiga tortadi. Ammo bu «joziba» ortida ko'pincha halokat yashirinadi.

Toshkent viloyati IIBB hamda O'rta Chirchiq va Bekobod tumanlari IIB tezkor xodimlari tomonidan o'tkazilgan navbatdagi tadbirlar davomida no-qonuniy qimor o'yinlari tashkil etilgan holatlar aniqlandi.

Xususan, O'rta Chirchiq tumanida 34 yoshli Arslon Ashurov (ism-shariflar o'zgartirildi) Toshkent



yo'li ko'chasida joylashgan umumiy ovqatlanish maskanidagi xonalar-dan birida 7 nafar shaxsga har bir o'yin uchun 100 ming so'm evaziga qimor o'ynash uchun sharoit yaratib bergani ma'lum bo'ldi.

Tadbir davomida ishtirokchilardan jami 1 million 600 ming so'm pul va ashyoviy dalillar rasmiylashtirib olindi.

Shuningdek, Bekobod tumanining «Yangiovul» mahallasida 28 yoshli Mirzo Olimov tomonidan klaster dala maydonida pul tikish orqali xo'roz urishtirish

ko'rinishidagi qimor o'yinlari tashkil etilgani aniqlandi.

O'yinga tikilgan 886 ming so'm pul mablag'i va 4 ta xo'roz daliliy ashyo sifatida rasmiylashtirib olindi.

Mazkur holatlar yuzasidan O'rta Chirchiq tumanida 7 nafar, Bekobod tumanida esa 25 nafar shaxsga nisbatan MJtKning tegishli moddasiga asosan ma'muriy chora ko'rildi.

Har ikkala holat bo'yicha jami 3 nafar tashkilotchiga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

**Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.**

Toshkent viloyati.

MARDLAR MANGU YASHAYDI



2000-yilning yozi edi. Izboskan tumanidagi tinch va osoyishta bir mahallada boshlangan shubhali harakatlar ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Kechqurunlari xonadonlardan biriga hijob kiygan ayollar tez-tez kirib chiqar, ularning yurish-turishida, xatti-harakatlarida ayollarga xos bo'lmagan allaqanday sovuqlik sezilib turar edi. Hushyor mahalla ahli bu holatni befarq qoldirmadi. Ichki ishlar organiga xabar berildi.

20-avgust, tungi soat 22:30. Ichki ishlar organlari xodimlaridan iborat tezkor guruh ishga kirishdi. Har bir xodim o'ziga birlashtirilgan nuqtani egalladi.

Shu payt shubhali xonadonning eshigi ohista ochilib, undan ikki nafar hijobli «ayol» chiqib keldi. Go'yo atrofni nazorat qilib yurgan xodim ularga yaqinlashdi va sokin, ammo hushyor ohangda so'radi:

– Opalar, tinchlikmi? Yarim tunda nima qilib yuribsizlar?

Shu zahoti darvozadan yana ikki nafar hijobli kimsa chiqib, xodimga yaqinlashdi va kutilmaganda vajohat bilan unga tashlandi. Tomog'idan bo'g'ib, ichkariga sudray boshladi. Jismonan toblangan xodim ularga qarshilik ko'rsatish chog'ida bildiki, hijob ichida ayollar emas, erkaklar yashiringan ekan.

Ular xodimga bas kela olmagach, tezda ichkariga kirib, darvozani qulflab oldi. Muzokara ish bermadi, jangarilar taslim bo'lish o'rniga, hovli ichkarisidan turib xodimlarga qarata o'q uza boshladi.

Eng achinarlisi, jangarilar bir ayol va uning ikki nafar norasida farzandini «jonli devor» sifatida ush-

lab turishdi. Bu tahlikali vaziyat tonggi 5:30ga qadar davom etdi. Shundan so'ng polkovnik Bahodir Hoshimov boshchiligidagi maxsus otryad ichkaridagi qurolli to'dani qurolsizlantirish bo'yicha hal qiluvchi harakatlarni boshladi.

Bu ayovsiz jang – tinchligimizga raxna solgan terrorchilarning osoyishtalik posbonlari bilan yuzma-yuz olishuvi edi. Afsuski, jang talafot-siz bo'lmadi. Qonli to'qnashuvda polkovnik Bahodir Hoshimov og'ir jarohat oldi. Tez tibbiy yordam ko'rsatilganiga qaramay, uning hayotini saqlab qolish imkoni bo'lmadi...

Vatan tinchligi o'z-o'zidan bunyod bo'lmaydi. Bugungi osoyishta hayotimiz zamirida aziz umrini, shirin jonini fido qilgan mard o'g'lonlarning beqiyos jasorati yotadi. Zero, el tinchligi yo'lida jonini ham ayamagan fidoyi farzandlarning xotirasi esa xalq yodidan aslo o'chmaydi.

Polkovnik Bahodir Hoshimov 1950-yilda Asaka shahrida tavallud topgan edi. Harbiy xizmatdan so'ng u o'z taqdirini ichki ishlar organlari bilan bog'ladi. Xizmat faoliyatini davlat avtomobil nazorati tizimida boshladi. Yillar davomida turli mas'uliyatli lavozimlarda sidqidildan xizmat qilib, jamoat tartibini saqlash sohasida katta tajriba to'pladi. Uning butun faoliyati mas'uliyat, temir intizom va fidoyilik bilan uyg'un edi. Hamkasblari uni prinsipial, jasur va yuksak insoniy fazilatlariga ega rahbar sifatida yodga oladi.

Bugun qahramonning nomi yurt xotirasidan munosib o'rin olgan. Poytaxtimizdagi «G'alaba bog'i» hududida barpo etilgan «Millat fidoyilari» xiyobonida uning nomi zarhal harflar bilan muhrlandi. Bu – xalqimizning mard o'g'loniga bo'lgan yuksak ehtiromi ramzidir.

Xuddi shuningdek, Andijon viloyati IIB Muzeyida uning jasoratga yo'g'rilgan hayot va xizmat yo'liga bag'ishlangan alohida bo'lim tashkil etilgan. Viloyat markazidagi «Vatanparvarlar» bog'ida joylashgan Xotira maydonida esa qahramonning siyмосi o'z aksini topgan. Har yili uning xotirasiga bag'ishlab sport musobaqalari o'tkazilmoqda.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



Qalbdagi siymolar

OTAMNING RUHI SHOD BO'LDI

Inson hayotida shunday siymolar bo'ladiki, ular butun umr yo'limizni yorituvchi yo'lchi yulduz vazifasini bajaradi. Otam ana shunday ulug' inson edi. U kishining bosib o'tgan ibratli hayot yo'li, kasbiga bo'lgan sadoqati va Vatanga xizmat qilishdagi fidoyiligi mening taqdirimga katta ta'sir ko'rsatdi.

Otam uzoq yillar davomida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida sharaflar bilan xizmat qildi. Bolaligimdan uning mas'uliyatli kasbiga bo'lgan jiddiy yondashuvi, temir intizomi va yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatini ko'rib ulg'aydim. Shu bois harbiy sohaga bo'lgan qiziqishim nihoyatda erta uyg'ondi. Men uchun Vatan himoyachisi bo'lish shunchaki orzu emas, balki muqaddas burchga aylandi.

Hali murg'ak qizcha bo'lgan paytlarimda otam meni erkalab, «o'zimning general qizim», deb atardi. Bu shunchaki erkalash emas, balki menga bo'lgan yuksak ishonch, katta umid va zimmamga mas'uliyat yuklovchi da'vat edi. Har gal shu so'zlarni eshitganimda, qalbmida g'urur va qat'iyat hissi yanada mustahkamlanardi. Aynan shu ishonch meni ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritishga undadi.

O'z maqsadimga erishdim – hozir Ichki ishlar vazirligi akademik litseyida psixolog sifatida faoliyat olib boryapman. To'g'ri, har kuni safda turib, forma kiyib xizmat qilmayapman, ammo bo'lajak xodimlarning ma'nan yetuk, bilimli, ruhiy jihatdan barqaror va eng muhimi, haqiqiy vatanparvar bo'lib yetishishiga o'z hissamni qo'shayotganimdan behad faxrlanaman.



Kasbiy faoliyatimdagi muhim burilishlardan biri o'tgan yili Ichki ishlar vazirligi tomonidan o'tkazilgan «Eng yaxshi psixolog» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli 3-o'rinni egallaganim bo'ldi. Bu natija men uchun nafaqat shaxsiy yutuq, kasbimga bo'lgan yuksak e'tibor va bildirilgan katta ishonch ifodasidir. Ayniqsa, ushbu sinovli jarayonda

Surxondaryo viloyati IIB psixologlari tomonidan ko'rsatilgan yaqin ko'mak va samimiy qo'llab-quvvatlash meni yanada ruhlantirdi.

Shuningdek, litseyimiz direktori tajribali ustoz sifatida menga doimo to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatib, bilimi va boy tajribasi bilan o'rnak bo'lib kelmoqda. Uning ishonchi va qo'llab-quvvatlovi kasbiy rivojimda muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, ilmiy izlanishlarim davomida IIV Malaka oshirish instituti tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy va metodik ko'mak alohida e'tirofga loyiq. Ilmiy tadqiqotlarimni olib borish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar, berilgan qimmatli tavsiyalar va muntazam qo'llab-quvvatlash bilim doiramni kengaytirishda muhim omil bo'lmoqda.

Afsuski, otam mening ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritayotganimni, erishayotgan yutuqlarimni ko'rmadi. Biroq men har bir qadamimda u kishining orzulari, ishonchi va bergan

o'g'itlarining ijobatini, tarbiyalarining mevasini chuqur his etaman.

Va bugun qalbmida qat'iy bir ishonch, sokin bir orom bor: Otamning ruhi shod bo'ldi!

Halima BEKMURATOVA,
IIV Surxondaryo akademik litseyi psixologi.

Ma'naviyat va ma'rifat darsi

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH –

DOLZARB VAZIFA

Korrupsiya insoniyatga qadim zamonlardan beri hamroh bo'lib kelayotgan eng xavfli illatdir. Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday foydani qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida o'z ichki siyosati va imkoniyatlariga ko'ra bu illatga qarshi muntazam ravishda kurash olib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarbligi shundaki, aynan ushbu illatni yo'q qilmasdan turib, qonun ustuvorligini to'liq ta'minlab bo'lmaydi. Korrupsiyaning paydo bo'lishi kimningdir huquqi poymol bo'lishi, mamlakat rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi, jamiyatni izdan chiqarishigacha olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, iqtisodiyotga, ijtimoiy sohaga va hattoki siyosatga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Har qaysi davlatning rivojlanishiga qarshi to'sqinlik qilibgina qolmay, balki milliy xavfsizligiga ham jiddiy tahdid solishi mumkin.

Korrupsiya darajasi mamlakatning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy obro'siga ham kuchli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti har yili 2,6 trillion dollar yo'qotmoqda.

Mamlakatimizda ushbu illatga qarshi kurashish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlab, bartaraf etish maqsadida 2017-yilda «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Ushbu yo'nalishda samarali faoliyat olib boradigan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi alohida aks ettirildi.

«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunda «korrupsiya»,



«korrupsiya huquqbuzarliklari», «manfaatlar to'qnashuvi» kabi tushunchalarga ta'rif berilgan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Bu borada muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi takomillashtirildi.

Turli darajadagi mansabdor shaxslarning aholi bilan muloqotini ta'minlash, fuqarolarning dolzarb masalalar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyati quyi va o'rta bo'g'inlardagi korrupsiya hodisalarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari erkinligi, davlat organlari

Korrupsiyaga qarshi kurash – umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtodoshimizning vijdon ishidir. Umuman, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak.

Shu bois, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilikni jalb qilishimiz zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV

gi va shaffofligini ta'minlash mexanizmlari, shuningdek, jamoatchilik nazorati institutlari takomillashtirildi. Raqamli va onlayn texnologiyalardan keng foydalanish davlat organlarining jamoatchilik oldida hisobot berish darajasini oshirdi. Masalan, yer uchastkalari va davlat aktivlarini, shuningdek, avtotransport vositalari uchun davlat raqami belgilarini onlayn auksionlar orqali sotish tizimi yo'lga qo'yilib, doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Beshinchidan, Prezidentimizning tegishli qarori doirasida har bir vazirlik va davlat organi huzurida davlat tashkilotlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda muhim bo'g'in hisoblangan jamoatchilik kengashlari tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqida korrupsiyaga qarshi kurashishga alohida urg'u berarkan, O'zbekistonda ushbu hodisaga qarshi murosasiz kurash yangi bosqichga ko'tarilgani, bu borada muhim qonun hujjatlari qabul qilindi, mustaqil tuzilma yaratilgani mamlakatimiz uchun bu yo'lning ahamiyati butun dunyoga namoyon bo'lganini ta'kidladi.

O'zbekiston tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali moliyaviy, huquqiy va institutsional mexanizmlarini yaratish borasida amalga oshirilgan ishlar o'z samarasini bermoqda. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, korrupsiyaga qarshi kurashish shunchaki bir necha yillik vazifa emas. Bu uzluksiz jarayon bo'lib, O'zbekiston hukumati o'zi olib borayotgan korrupsiyaga qarshi islohotlarning ushbu sohadagi xalqaro standartlarga muvofiq muvaffaqiyatini ta'minlash uchun yangi qadamlarni qo'yishga qat'iy intilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar xalqimiz roziligini qozonish, yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini barpo etish, yuksak taraqqiyot bosqichiga chiqish uchun muhim asos bo'ladi.

G'ayratulla SHUKUROV



Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.

Qoraqalpoq tilida



Rus tilida



Xotira uyg'onsa go'zaldir

HAMON SHOGIRDLARI QALBIDA

Inson umrining eng katta mukofoti – lavozimi yoki unvoni emas, balki ortidan yaxshi nom va ezgu xotira qolishidir.

Ana shunday sharafiga sazovor bo'lgan insonlardan biri yuridik fanlar doktori, professor, general-mayor Matrasul Sobirovdur.

Matrasul Sobirov 1950-yil 15-may kuni Xorazm viloyatining Bog'ot tumanida tavallud topdi. Yoshligidanoq ilmga chanqoqligi, izlanuvchanligi va qat'iyati bilan aksar tengdoshlaridan ajralib turardi. U 1971-yilda Taganrog davlat pedagogika institutini muvaffaqiyatli tamomladi. Keyinchalik sobiq Ittifoq IIV Toshkent oliy maktabida tahsil olib, huquqshunoslik va boshqaruv sohasidagi bilimlarini yanada mustahkamladi.

Xizmatini Davlat xavfsizligi tizimida boshlab, keyinchalik ichki ishlar organlarida mas'ul rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bordi. Buxoro viloyati IIBda rahbarlikning turli bosqichlarida orttirgan boy tajribasi, tashkilotchilik salohiyati keyinchalik uning ta'lim tizimidagi faoliyatida yorqin namoyon bo'ldi.

1994-yilda Matrasul Sobirovning IIV Yong'in xavfsizligi oliy texnik maktabi boshlig'i etib tayinlangani bu maskan tarixida yangi bosqichning boshlanishi bo'ldi. U rahbarlik qilgan yillarda ta'lim dargohida o'quv jarayonini tubdan takomillashtirish, ilmiy salohiyatni oshirish, professor-o'qituvchilar tarkibini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy

etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Aynan ustozning tashabbuslari bilan ta'lim muassasasida yangi o'quv-laboratoriya binolari qad rostladi, sport inshootlari, ma'naviyat markazi, muzey, tibbiyot korpusi va boshqa ko'plab obektlar barpo etildi yoki kapital rekonstruksiya qilindi. O'quv xonalari zamonaviy texnik vositalar, laboratoriya jihozlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda yurtimizda ishlab chiqarilgan zamonaviy yong'in o'chirish texnikalari bilan ta'minlandi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Professor Matrasul Sobirov serqirra olim sifatida ham katta ilmiy maktab yaratdi. Uning ilmiy izlanishlari natijasida o'nlab ilmiy maqolalar, monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratildi, ixtirolar uchun patentlar olindi. Ustoz yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishida faol ishtirok etdi. Eng muhimi, u ilmni hayotdan ayro tasavvur qilmagan holda nazariya



va amaliyotni uyg'unlashtira oldi. Shu bois uning shogirdlari nafaqat chuqur kasbiy bilimga ega, balki Vatanga va burchga sodiq, yuksak ma'naviyatli yetuk mutaxassislar sifatida kamol topdi.

Bugun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilyapti, ilm-fan va innovatsiyalar yo'lidagi dadil qadamlar tashlanmoqda, xalqaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda, ta'lim sifati va amaliy tayyorgarlik borasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilyapti. Bularning barchasi kechagi kun bilan bugunning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Har bir mustahkam bino pishiq poydevor ustiga qurilgani kabi,

bugungi taraqqiyot ham o'z vaqtida bunyod etilgan mustahkam asosga tayanadi. Ana shu poydevor yaratilishida general-mayor Matrasul Sobirovning xizmatlari alohida o'rin tutadi. Uning uzoqni ko'ra bilgan rahbar sifatidagi qarorlari, ta'lim va tarbiya sohasidagi jonkuyarligi, ilmiy muhitni shakllantirishga qaratilgan tashabbuslari bugun ham o'z samarasini bermoqda. Akademiyaning hozirda erishayotgan muvaffaqiyatlarida ustozning ham zahmatli mehnati mujassamdir.

Matrasul Sobirov bugun oramizda jisman bo'lmasa-da, o'zining yaratgan maktabi, ezgu ishlari, ilmiy merosi, tarbiyalagan minglab shogirdlari va qalblarda qoldirgan yorqin xotirasi bilan hamon yashamoqda. Har safar FVV Akademiyasi tarixi, fidoyilik, halollik, rahbarlik mas'uliyati va ustozlik maqomi haqida so'z borganda, bu ulug' inson nomi chuqur hurmat-ehtirom bilan tilga olinadi.

Bunday fidoyi insonlarni eslash – bu nafaqat o'tganlarga hurmat bajo keltirish, balki bugungi avlodning ertangi kun oldidagi mas'uliyatini chuqur his etishi demakdir.

Zero, inson umri yillar bilan emas, qalblarda qoldirgan xotirasi bilan o'lchanadi. Professor, general-mayor Matrasul Sobirov esa hamon avlodlar qalbida yashayotgan ustozdir.

Zikrilla NE'MATOV,
iste'fodagi polkovnik.

To'yxat o'rnida

MAMNUNLIK VA SHUKRONALIK



Bolaligida Chayonli qishlog'ining profilaktika inspektori Hakim Yaxshiboyevning o'g'irlikni fosh qilib, yo'qolgan qo'ylarni egasiga keltirganidagi odamlarning xursandchiliklarini ko'rib unga havasi ortgan lavhamiz qahramoni harbiy xizmatni o'tashi bilan o'q' ichki ishlar idoralariga hujjat topshiradi. Dastlab Jizzax shahar IIB Qo'riqlash bo'limida safdor bo'lib ish boshlaydi. Toshkentdagi militsiya maktabini tugatgach esa, G'allaorol tumani IIB Sotsialistik mulkni talon-toroj qilishga qarshi kurashish bo'limida xizmatni davom ettiradi.

...Katta leytenant Erjigit Toshmurodov tumandagi jami 14 ta pochta qabul qilish punktining har biriga kishi bilmas tarzda birma-bir kirib chiqadi. Ulardagi jo'natmalar va ma'lumotlarni diqqat bilan ko'zdan kechiradi. Maqsad – pochta bo'limlari orqali sobiq ittifoqning turli hududlaridan yashirincha gazlama va boshqa turdagi

yashirin mol qabul qiluvchi chayqovchilarni aniqlash va ularni qo'lga tushirish edi. Ko'p o'tmay kutilgan jo'natma keladi va u xodimni chayqovchining uyiga yetaklaydi. O'sha davr qonunchiligiga ko'ra, do'konlarda sotiladigan kamyob mollarni yashirincha sotish jinoyat hisoblangani uchun bu ish bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhning barcha a'zolari qo'lga olinadi.

Keyinchalik, tuman IIB boshlig'i o'rinbosari bo'lib ishlagan kezlarda qator mol

o'g'irliklari aynan bir jinoiy guruh tomonidan, qo'shni viloyatda yashovchi shaxslar bilan sheriklikda amalga oshirilayotgani aniqlanib, barcha o'g'irlarning qo'lga olingani juda katta shovshuv bo'lgandi, deb eslaydi u bilan birga ishlagan faxriylardan Shamsiddin Suvonov.

1985-yilda E. Toshmurodov Arnasoy tumani IIB boshlig'i lavozimiga tayinlangach, jamoatchilikni jalb qilib, ko'ngillilar guruhini tuzishga bosh-qosh bo'ldi. Natijada jinoyatchilik jilovlanib, respublikada

namunali tumanlardan biri sifatida e'tirof etildi.

1997-yilda Jizzax viloyati IIBda Huquqbuzarliklarning oldini olish boshqarmasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritib, profilaktika inspektorlariga shart-sharoit yaratish, mahallalarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish ishlariga bevosita rahbarlik qildi.

51 yoshida izzat-hurmat bilan pensiyaga kuzatilgan lavhamiz qahramoni bugungi kunda yosh xodimlar bilan muloqotlarda, «Uch avlod uchrashuvi»

tadbirlarida faol ishtirok etmoqda.

Erjigit Toshmurodov rafiqa Marhamat opa bilan 4 nafar farzandni tarbiyalab ulg'aytirishdi. Ulardan kenjasi Otabek Toshmurodov ota izidan ketdi. Hozir u Sharof Rashidov tumani IIB JXX Probat-siya guruhi xodimi, unvoni – mayor.

Muborak 70 yoshni qarshi olayotgan lavhamiz qahramoni sohaning bugungi kunda yuksak texnologiyalar, aqlli kuzatuv va nazorat tizimlari asosida ishlayotganidan, boshqaruv va xalq bilan muloqot tizimi yaxshilangan davrlarni ko'rayotganidan behad mamnun.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



QR-kod orqali o'ting va Alisher Fayzning «Oilamizga» taronasini tinglab, qalbingizni iliqlik bilan to'ldiring!

Oilaviy qadriyatlarni tarannum etuvchi ushbu samimiy qo'shiq sizga a'lo kayfiyat va cheksiz quvonch bag'ishlaydi.



Farzandimning yutug'i

OILAMIZNING SAN'AT G'UNCHASI

Oilamizda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish va ilm-ma'rifatga intilish asosiy qadriyat hisoblanadi. Turmush o'rtog'im – polkovnik Mehmonali Suvonqulov, professor, yuridik fanlar nomzodi, IIV Malaka oshirish instituti yuridik fanlar kafedrasida boshlig'i. Uch farzandimizni ham yoshligidan ilmga, san'atga va sportga yo'naltirishga harakat qildik. Katta farzandimiz bizning izimizdan bordi, kenja o'g'limiz esa futbolda o'z iqtidorini namoyon etmoqda. Ammo bugun o'rtancha qizimiz – Nozimaxon Ismoilovaning san'at olamidagi yuksak yutuqlari haqida alohida to'xtalmoqchiman.

Nozimaxon Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining «Maxsus fortepiano» sinfi o'quvchisi. U maktabning eng ilg'or va iqtidorli o'quvchilaridan biri sifatida O'zbekiston



Milliy simfonik orkestri bilan katta sahnalarda chiqish qilib kelmoqda. Uning musiqaga bo'lgan mehri va tinimsiz mehnati xalqaro maydonda ham yuksak e'tirof etilmoqda.

2023-yilda Italiyada o'tkazilgan «Barletta International Piano Competition» tanlovida qi-

zim «Absolyut» mukofoti sovrindori bo'ldi. Joriy yilning aprel oyida esa Fransiyada bo'lib o'tgan yosh pianochilar xalqaro tanlovida yurtimiz sha'nini munosib himoya qilib, faxrli 1-o'rinni egalladi.

Tanlov prezidenti Igor Lazko O'zbekistondagi Uspenskiy nomidagi mak-

tabning nufuzini va u yerdan yetishib chiqayotgan iqtidorlarni alohida yuqori baholagani bizni juda quvontirdi.

Zero, farzandlarimizning har bir yutug'i biz uchun eng katta mukofotdir.

Dilnoza RASULOVA,
podpolkovnik.

«BAXTIYOR OILA» FOTOTANLOVIDA ISHTIROK ETING!



Oilaviy qadriyatlaringiz, farzandlarinigiz erishgan yutuqlar hamda baxtli va quvonchli lahzalar gazetamiz sahifalarida aks etishini xohlaysizmi?

«Postda – На посту – At the post» gazetasi «Bolajon» va «Oila» ilovalari ijodkor oilalar va ftohavaskorlar o'rtasi-

da «Baxtiyor oila» mavzusida fototanlov e'lon qiladi!

Tanlov g'oliblarining fotosuratlarini gazetaning yangi sonlarida chop etiladi.

Fotosuratlarini quyidagi manzillarga yuboring:

Telegram orqali: @postdarasmiy
Telefon: +998901748998



TANISHING: YANGI ILOVA – «OILA»

Inson uchun eng aziz qadriyat – oilaga bo'lgan cheksiz mehr va hurmatdir. Ushbu ilova xonadoningizda totuvlikni yanada mustahkamlash barobarida, sizning yaqin hamrohingiz bo'lishiga ishonamiz.

Yaqinlaringiz bilan o'tkazgan har bir kuningiz mazmunli va quvonchli o'tishi uchun biz bu loyihada ajdodlar hikmati va zamonaviy bilimlarni jamladik. Ilova sahifalarida samimiy suhbatlar uchun ilhom, oilaviy masalalarni hal etish kalitlari va avlodlar o'rtasidagi rishtalarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi g'oyalar o'z aksini topadi.

«Oila» – ota-onalar, farzandlar va keksalar birgalikda muhim haqiqatlarni kashf etadigan oilaviy mutolaa maskanidir. Zero, biz sizning xonadoningizdagi muhit samimiyatga to'la bo'



lishiga ko'maklashishni maqsad qildik. Albatta, yangi loyihamiz jamiyatda oilalar mustahkamligi va baxtiyorligiga xizmat qiladi, degan niyatdamiz.

IIV Birlashgan tahririyati

Ko'rik-tanlov

AN'ANALAR VA MAHORAT NAMOYISHI



El osoyishtaligi yo'lida xizmat olib borayotgan yurt posbonlarining ibratli oilaviy an'analarni keng targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan va Ichki ishlar vazirligiga qarashli «Oqtosh» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida o'tkazilgan «Namunali oila» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi qizg'in baharlarga boy bo'ldi. 15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan o'tkazilgan tanlov oilaviy qadriyatlarni ulug'lash va mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

4-5

Suratda: tanlov g'olibi – Navoiy viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni mutaxassisi, katta serjant Zohid Roziqov oilasi.

XIZMATGA MUNOSIB RAG'BAT

Mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, ularning munosib sharoitlarda xizmat olib borishini ta'minlash hamda oilaviy farovonligini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada, ayniqsa, soha vakillarini uy-joy bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yaqinda ana shunday g'amxo'rlikning namunasi sifatida avval uy-joy bilan ta'minlanmagan hamda xizmat faoliyati davomida ijobiy natijalarga erishgan bir guruh xodimlar va faxriylarga Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'iga asosan o'zlarini istiqomat qilib kelayotgan xonadonlardan «xizmat uyi» maqomi yechilib, bepul shaxsiy mulk etib rasmiylashtirib berildi.

– Albatta, har bir xodimning o'z oldiga qo'ygan yuksak orzu va maqsadlaridan biri – bu oilasi uchun boshpana, ya'ni o'z uyga ega bo'lib, farzandlari kamolini ko'rish bo'lsa, men bunga erishgan xodimlardan biriman, deb qo'rqmasdan ayta olaman, – deydi Buxoro viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati katta inspektori, podpolkovnik Rustam Shirinov. – Bundan 22 yil muqaddam tumandan qatnab ishlash qiyinchiliklari sababli yosh oilam

bilan shaharga kelib ijarada yashadik. O'shanda shaharning qaysi bir burchagidan bo'lsa-da bir boshpanamiz bo'lsa edi deb, orzu qilardik. 2015-yili xizmat uyi berilgach, ko'cha-ko'chlardan tinchidik. Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'iga asosida shu yashab kelayotgan xonadon menga shaxsiy mulk qilib berildi.

Shofirkon tumanida besh farzandning to'ng'ichi bo'lib dunyoga kelgan lavhamiz qahramoni 2004-yildan beri ichki ishlar organlarida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'tgan yillar davomida ko'plab shogirdlar tayyorladi, turmush o'rtog'i

12 yil ijara-da yashab, shu davr ichida to'qqiz bor turli joylarga ko'chishga majbur bo'ldik. Har bir ko'chganimizda yosh farzandlarimning «Dada, qaysi biri bizning uyimiz o'zi?» degan savollariga javob berishga qiynalardim.

O'g'iloy Rajabova bilan oilasiga bosh-qosh bo'lib, ikki o'g'il va bir qizni kamolga yetkazdi. Ayni paytda o'g'illari Bekzod va Farhod davlat granti asosida Buxoro davlat tibbiyot institutida tahsil olmoqda. Qizi Shukrona esa 2-sinf o'quvchisi, u ham akalaridek shifokor bo'lmoqchi.

– Biz kitobsevarlar oilasimiz, desam, mubolag'a bo'lmaydi, – deydi podpolkovnik R. Shirinov. – Chunki oddiy dehqon oilasida tarbiya topib, bu darajaga erishishimda o'qiganlarim juda astqatgan. Hozir ham yangi chop etilgan asarlarni sevib o'qiyman. Uyimdagi javonda 500 dan ortiq kitoblarim bor. Yana har oy maosh olgan kunim oilam bilan «Kitoblar olami» do'koniga boramiz, farzandlarimga xohlagan kitobini olib beraman. Bundan tashqari, oilaviy sevimli mashg'ulotimiz – shaxmat o'ynash. Tez-tez o'g'illarim bilan aqlni charxlab turamiz.

Xulosa shuki, o'zining shaxsiy uy-joyiga va mustahkam ijtimoiy himoyasiga ega bo'lgan xodim ertangi kunga qat'iy ishonch bilan qarab, bor kuch-g'ayratini jamiyat xavfsizligini ta'minlashga qaratadi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



PODPOLKOVNIK QIZINING ORZUSI

Bolaligimdan onamning xizmat kiyimida yurishlariga havas bilan boqardim, u men uchun doimo olijanoblik, nafosat va bukilmaz iroda timsoli bo'lib kelgan. Onamning o'z burchiga sadoqat bilan yondashishi va fidokorona xizmati meni hamisha hayratga solardi. Aynan uning matonati, bergan o'g'itlari, to'g'ri tarbiyasi xarakterimni shakllantirib, qiyinchiliklarni sabot bilan yengishga o'rgatdi.

IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyiga o'qishga kirishim oilaviy an'anamizning mantiqiy davomi bo'ldi – men onam, Mirzo Ulug'bek tumani IIOFMB Migratsiya va personallashtirish bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Yulduz Azizova izidan borishni maqsad qildim.

Kelajakda yetuk xodim bo'lib shakllanishim sport va jangovar tayyorgarlik bilan chambarchas bog'liq. «Qalqon» jangovar tayyorgarlik guruhi a'zosi sifatida, respublika

musobaqalarida jamoamiz bilan faxrli ikkinchi o'rinni egallab, litseyimizdagi tayyorgarlik tizimi mamlakatimizda eng yaxshilaridan biri ekanini isbotladik. Yaqinda bo'lib o'tgan respublika spartakiadasida ko'pkurash bo'yicha uchinchi o'rinni egallaganim esa men uchun muhim shaxsiy natija bo'ldi. Bu bilan sohada nafaqat yigitlar, balki qizlar ham kuch-quvvat, chidamlilik va iroda borasida hech kimdan qolishmasligini yana bir bor tasdiqladim.

Litseyimiz bilim, intizom, mas'uliyat maktabidir. IIV Akademiyasiga yetaklovchi ushbu maskanda tahsil olayotganimdan faxrlanaman. Ishonamanki, hali oldinda ko'plab g'alabalar kutmoqda va har bir yutug'im onamning menga bo'lgan ishonchi hamda ko'rsatgan yuksak o'rnagi uchun minnatdorligim ramzidir.

Risolat AZIZOVA,
IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyi o'quvchisi.



Bong!

BIR UYDAGI BEGONALAR

Tasavvur qiling: kechki payt, hamma uyda. Oshxonadan shirin taom hidi kelyapti, xonalarda chiroqlar yoniq. Ammo uy ichida sukunat hukmron... Faqatgina barmoqlarning ekranga tegishidan chiqadigan yengil tovushlar va ijtimoiy tarmoqlarning «bildirishnomalari» eshitiladi. Biz bir dasturxon atrofidamiz, lekin xayolan minglab kilometr uzoqlikdagi «lenta»damiz.

Bugungi kunning eng og'riqli muammosi – virtual yaqinlik va real uzoqlik. Psixologlar bu holatni «fabbing» (suhbatdoshini telefonga almashtirish) deb atashadi. Xo'sh, qanday qilib yana bir-birimizning ko'zimizga qarab suhbatlashishni o'rganamiz?

«Oila – bu faqat umumiy manzil emas, balki har kunlik jonli muloqot energiyasidir. Agar bu energiya uzilsa, oila a'zolari shunchaki bir tom ostida yashovchi begonalarga aylanib qoladi», deydi oilaviy psixologlar.

Muammoni hal qilish borasidagi kichik qadamlar ham katta mehrni qaytara oladi:

● **«Telefonsiz 30 daqiqa»:** kunning ma'lum vaqtini, masalan, kechki ovqat paytini telefonsiz hududga aylantiring. Qurilmalarni boshqa xonaga qo'ying.

● **Choy ustida suhbat:** kechki choy ichish an'anasi tiklang. Bu vaqtda faqat yaxshi yangiliklar va rejalar haqida gaplashing.

Hayotiy tajribalar:

Azimovlar oilasi (Toshkent): «Biz bir qoida joriy qildik: kim ovqat ustida birinchi bo'lib telefonga qo'l uzatsa, bir hafta idish yuvadigan bo'ldi. Ishoning, ikki kunda hamma «mehribon» bo'lib qoldi, chunki hech kim idish yuvgisi kelmasdi».

Hamroqulovlar oilasi (Samarqand): «Biz «Kun savoli» o'yinini boshladik. Har kuni kechqurun farzandlarimizdan: «Bugun seni nima kulishga majbur qildi?» deb so'raymiz. Bu paytda telefonlar shunchaki o'chirib qo'yiladi».

Dunyodagi eng muhim yangilik ijtimoiy tarmoqda emas, yoningizda o'tirgan insonning ko'zidir. Bugun kechqurun telefonni bir chekkaga qo'ying va yaqinligizdan shunchaki: «Yaxshimisan? Kuning qanday o'tdi?» deb so'rang. Baxt aynan shu oddiy e'tibordan boshlanadi.

Aziza BOHODIROVA,
mayor.



OILA...

...insonning kuchli yoki zaif tarafi bo'lishi mumkin.

...da nizoli vaziyat yuzaga kelsa, avvalo, o'zingga bir savol ber: «Sen haq bo'lishni istaysanmi yoki baxtli?»

...qurish uchun muhabbatning o'zi yetarli. Lekin uni saqlab qolish uchun sabr qilish va kechirishga o'rganish talab etiladi.

...qurish o'z haq-huquqlaringni yarmiga qisqartirib, majburiyatlarni ikki baravar orttirish demak.

...hamma narsaning o'rnini bosadi. Shuning uchun turmush qurishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'r, sen uchun eng muhimi nima: hamma narsami yoki oila?

...tarkibidagi eng zarur ehtiyot qism mehr va muhabbatdir.

...a'zolari bir-biri uchun rag'bat bo'lishi kerak, muammo emas.

...dunyodagi eng qadri va muhim narsa. Dastlab – tug'ilganing, so'ng-esa – qurganing.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

FAQAT DADAM BILMASIN

Ular juda baxtli oila edi. Ota, ona va shiringina qizaloqdan iborat bu oila juda baxtli hayot kechirardi. Lekin taqdir hukmi bu baxtni ularga ko'p ko'rdi – uzoq davom etgan kasallik sababli ona uch yoshli qizi hamda sevimli yorini tashlab bu dunyoni tark etdi. Turmush o'rtog'ining o'limidan chuqur qayg'uga botgan ota qizalog'iga onasining o'limini qanday tushuntirishni bilmasdi. Buning ustiga go'dak har kuni undan «oyim qayerga ketdilar, qachon keladilar?», deb so'rayverardi.

– Oying ishga ketdi, qizim. Ishxonasidan uzoq muddatli safarga chaqirishgan, Xudo xohlasa, tez orada kirib keladi, – deya qizini ovutib qo'yardi.

Vaqt kelib ota bir mehribon, oqko'ngil ayol bilan tanishdi va ular turmush qurishga ahd qilishdi. Otasi qizini yoniga chaqirib, asta gap boshladi:

– Qizim, oying qaytib keladigan bo'ldi. Sen uning yuzini unutib qo'yganing yo'qmi?

Qizaloq biroz o'ylanib turib, «yo'q» ma'nosida bosh qimirlatdi. Xuddi shu lahzada eshik ochilib, bir ayol kirib keldi:

– Qizalog'im, men seni oyingman, taniyapsanmi?

Qizaloq otasiga hayron bo'lib tikildi.

– Qizim, tanimayapsanmi, axir, u se-ning oying! Aytgandim-ku, ishga ketgan, bir kun qaytib keladi, deb. Mana, qaytib keldi. Endi tez borib, «oyi» deb quchoqlab qo'ygin-chi, bo'laqol tez! – deb ota qizining ko'zlariga tikildi.

Qizaloq indamay ayolning qucho-g'iga borib, «oyi» deb qo'ydi. Ko'ngli to'lgan ota qizini yoniga borib, peshonasidan asta o'pdi va «Hozir kelaman, sen oying bilan gaplashib o'tir, qizim», deya tashqariga yo'l oldi. Otasi chiqib ketgach, qiz birdan yig'lab yubordi va ko'zida yosh bilan:

– Siz mening oyim emassiz! – dedi to'satdan. – Mening oyim o'lgan!

Ayol hayratdan ne deyarini bilmay qoldi.

– Buni men bobom va buvimlarniki-ga borganimda ularning suhbatlaridan bilib qolganman. Buni faqat men, bobom va buvim bilamiz, xolos. Dadam bundan bexabar. U haligacha oyimni ishga ketgan deb o'ylaydi. Bu gapni dadam bilmasin, bilib qolsa, azoblanib yig'laydi. Sizni doim «oyi» deb chaqiraman. Faqat bu gaplarni dadamga aytib qo'ymang, jon oyil! – deya qizaloq yig'lab yuborishdan o'zini zo'rg'a tutib turgan «yangi oyisi»ga yolvorardi.

Bu payt eshik ortida turgan otaning yuzini ko'z yoshlari yuvaradi...



«YAXSHIYAM, SIZ BORSIZ!»

El-yurt osoyishtaligini ta'minlash yo'lida xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarining ortida ularni duo bilan kuzatadigan, xavotir bilan kutadigan va sabr bilan qo'llab-quvvatlaydigan oila a'zolari turadi. Bu kasbning mashaqqati nafaqat xodimning, balki yaqinlarining zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Xiva tumani IIB Migratsiya va personallashtirish guruhi katta mutaxassis, mayor Hamrobek Jumaniyozovning rafiqasi, Xiva shahridagi 16-sonli maktabning tarix fani o'qituvchisi Gulmira Masharipova bilan suhbatimiz ana shu haqda bo'ldi.

– Turmush o'rtog'ingizning xizmat faoliyati tufayli eng ko'p nimadan xavotir olasiz?

– Xodimlarning xizmat faoliyati davomida turli vaziyatlar yuz beradi. Ular har xil insonlar bilan ishlashiga, jinoyatchilar bilan muloqot qilishiga to'g'ri keladi. Shunday paytlarda ko'ngilsiz holatlar bo'lishi mumkinligi kishini xavotirga soladi. Chunki xizmat vaqtida jarohat olgan, hatto hayotdan ko'z yumgan xodimlar haqida ko'p eshitganmiz. Eng katta tilagim – farandalarimning otasi uyga sog'-omon qaytishi.

– Xizmatdan kech qaytadigan kunlar siz uchun qanday o'tadi?

– Xavotir aralash kutish nihoyatda qiyin. Tinmay soatga qaraysan, telefon jiringlasa, yuraging hapriqib ketadi. Ayniqsa, navbatchilik paytlarida, farandalarimiz betob bo'lib qolganida «Tezroq tong otsa, navbatchilikni topshirib kela qolsalar edi», deb kutaman. Bu hisni so'z bilan tushuntirib bera olmayman.

– Uyda u kishi ko'proq otami yoki xodim?

– Uyda, albatta, haqiqiy ota sifatida doimo farandalarining o'qishini nazorat qilib, zarur paytda tanbeh ham beradilar.



– Xizmatdagi mashaqqatlar oilaviy munosabatlarga ta'sir qiladimi?

– Albatta, ta'sir ko'rsatadi. Shunday paytlarda biz ularni tushunishga harakat qilamiz, yaxshi so'zlar bilan qo'llab-quvvatlaymiz.

– Eng esda qolgan qiyin kunlarin-giz bo'lganmi?

– Ha, bo'lgan. 2020-yil pandemiya davrida turmush o'rtog'im haftalab uyga kelmay, bemorlarga yordam bergan. Mashinada uxlagan paytlari bo'lgan. Issiq ovqat yemay, sovuq kunlarda xizmatni o'tab, hatto virus yuqtirgan

bemorlar yashayotgan hududlarda ham navbatchilik qilishgan.

– Xizmat libosini kiyib, eshikdan chiqayotganida ko'nglingizdan nimalar kechadi?

– Bunday paytlarda, to'g'risi, juda faxrlanib ketaman. Boshimizdan kechgan qiyinchili-gu tashvishlar hammasi bir onda unutiladi. Shunday insonning ayoli ekanimdan sevinaman.

– Ko'nglingizning tubidagi gapni aytib deyishsa, nima degan bo'lardingiz?

– Men eng baxtli ayolman. Chunki bir yelkasida el-yurt tinchlik-osoyishtaligi, ikkinchi yelkasida oila va farandlari mas'uliyatini ko'tarib yurgan mard, vatanparvar, fidoyi inson bilan yelkadoshman. «Yaxshiyam siz borsiz! Boringizga shukur!» degan bo'lardim.

Nilufar JABBOROVA suhbatlashdi.

Xorazm viloyati.

Qonun va burch

OTA-ONA VA FARZANGLAR MUNOSABATI

Farzandning ta'lim olishi, ma'naviy va jismoniy kamoloti uchun sharoit yaratish ota-onaning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Oila kodeksining 73-moddasida ota-ona o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishi, zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi ko'rsatilgan.

Shuningdek, Oila kodeksida ota va onaning farzandga nisbatan teng huquq hamda majburiyatlarga egaligi, ya'ni, farzand tarbiyasi faqat ona yoki faqat ota zimmasida emas, balki har ikki tomonning umumiy mas'uliyati hisoblanishi, o'z navbatida farzandlar ham ota-onani hurmat qilishi, ularga g'amxo'rlik ko'rsatishi va oila qadriyatlariga sodiq bo'lishi kabi ma'naviy burchlarga egaligi alohida ko'rsatilgan.

Oila kodeksida belgilangan talablarga ko'ra, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga g'amxo'rlik qilishlari shart.

Bolalarni tarbiyalashda ularning haq-huquqlarini mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollik, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomala qilish, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan tiyilishi kerak. Ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgarlik bor.

Huquqiy madaniyatli oilada tarbiya topgan farzand, albatta, kelajakda jamiyatning ongli, qonunga hurmat bilan qaraydigan fuqarosi bo'lib yetishadi.

Bekzod RISKIMOV, IIV Yuridik ta'minlash boshqarmasi bo'lim boshlig'i, kapitan.

Ko'rik-tanlov

(Davomi.
Boshlanishi 1-betda.)

Ko'rik-tanlovda dastlabki saralash bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 19 ta eng namunali oila qatnashdi. Ular uchta shart bo'yicha nafaqat o'z bilim va intellektual salohiyatlarini, balki san'at va aktyorlik qobiliyatlarini ham namoyish etdilar.

Tanlovning dastlabki shartida ishtirokchilar milliy raqs, she'r va jonli ijrodagi qo'shiqlar orqali sog'lom hamda namunali oila yutuqlarini tarannum etgan bo'lsa, ikkinchi shartda oilaning jamiyatdagi o'rni, o'ziga xos an'ana va qadriyatlarini aks ettiruvchi videoroliklar tomoshabinlar e'tiboriga havola qilindi.

Yakuniy – «Biz – kitobxon oilamiz» sharti g'oliblarni aniqlashda eng muhim va hal qiluvchi palla bo'ldi. Bu shartda ishtirokchi oilalar o'zbek va jahon adabiyotining

durdona asarlari mazmun-mohiyati yuzasidan berilgan savollarga javob qaytarishdi. E'tiborlisi, xodimlarning oila a'zolari, ayniqsa, farzandlari kitobga bo'lgan mehri baland ekanini amalda isbotlab berishdi.

Hakamlar hay'atining yakuniy xulosalariga ko'ra, g'olib va sovrindorlar nomi e'lon qilindi. Unga ko'ra, **Navoiy viloyati**

AN'ANALAR VA



Suratda: ikkinchi o'rin sohibi – IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti Mukofotlash bo'limi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, mayor Ixtiyor Abdullayev oilasi.



MAHORAT NAMOYISHI



Suratda: uchinchi o'rin sohibi – IIV T va TOXTD Toshkent mintaqasi temiryo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi Kadrlar bilan ta'minlash guruhi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, mayor Nuriddin Jumaboyev oilasi.

IIB JXX JTSB PPX batoryoni mutaxassisi, katta serjant Zohid

Roziqov oilasi tanlov g'olibi deb topildi. IIV Ma'naviy-ma'rifiy ish-

lar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti Mukofotlash bo'limi

MTB inspektori, mayor Ixtiyor Abdullayev oilasi ikkinchi, IIV T va TOXTD Toshkent mintaqasi temiryo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi Kadrlar bilan ta'minlash guruhi MTB inspektori, mayor Nuriddin Jumaboyev oilasi esa uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, tanlovda faol ishtirok etgan oilalar alohida nominatsiyalar bo'yicha diplom hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan rag'batlantirildi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.
Abu KENJAYEV
olgan suratlar.



Ветераны — наша гордость

ОПЫТ, ЗАКАЛЕННЫЙ ВРЕМЕНЕМ

За плечами Бахтиёра Рахимова 30 лет службы в ОВД. Получив диплом юрфака ТашГУ (ныне – НУУз им. Мирзо-Улугбека) в 1984 году, он связал жизнь с правоохранительными органами. Профессиональный путь начал следователем в ОВД Юкоричирчикского района Ташкентской области. Служил в Янгиюльском, Зангиатинском районах.



Ответственность и неиссякаемая энергия помогли ему оттачивать мастерство. В 1990 году Б. Рахимов переводят в МВД, где он прошел путь от следователя до заместителя начальника отдела Следственного управления. Ему поручали наиболее сложные дела, связанные с грабежами, разбоем, незаконным оборотом наркотиков. Перейдя в оперативные службы столичного ГУВД, занимался раскрытием экономических преступлений, борьбой с оргпреступностью.

– В те годы обострилась оперативная обстановка, – вспоминает ветеран. – Работали сплоченно. Нас объединяла цель: укрепить законность и правопорядок, не допустить разгула преступности.

Руководство ценило Бахтиёра Джалиловича за знания и организаторские способности. В 2002 году его назначают начальником следственного звена ОВД Зангиатинского района, несколькими годами позже – заместителем начальника – начальником следственного отдела ОВД города Алмалыка. В 2007 году руководство доверило ему возглавить ОВД Ташкентского района, а затем – Следственное управление УВД (ныне – ГУВД) Ташкентской области. На этих постах Бахтиёр Джалилович вновь проявил себя как профессионал, умеющий принимать верные решения.

...В 2014 году в звании подполковника Б. Рахимов вышел на заслуженный отдых. Однако оставаться в стороне от дел он не привык. Сегодня он работает специалистом в Республиканском благотворительном фонде «Махалла» и ведет активную общественную работу в составе Совета ветеранов ГУВД столичной области. Опыт и знания ветерана – бесценны, ими он щедро делится с молодыми сотрудниками.

Бахтиёр ака вместе с супругой Гульнорой оповоспитали троих детей – дочь Наргиз, сыновей Санджара и Жасура. Отметим, что Жасур продолжает дело отца: в звании капитана он служит в ГУВД города Ташкента. А это значит, что преемственность поколений сотрудников органов внутренних дел не прерывается.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Международные связи

НОВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Делегация Ташкентского академического лицея №1 и Специализированной школы-интерната МВД Республики Узбекистан посетила Специализированный лицей МВД Беларуси в городе Минске.



Главным событием поездки стало подписание меморандума о сотрудничестве, скрепившего партнерские отношения.

– Двусторонние проекты дадут мощный импульс развитию ведомственного образования. Будем продолжать наращивать обмен педагогическими наработками, а также усилим совместную работу по военно-патриотическому воспитанию

молодежи, – подчеркнул начальник Специализированного лицея МВД Республики Беларусь полковник милиции Евгений Абрамович.

Гости ознакомились с материально-технической базой лицея, особенностями учебно-воспитательного процесса. В рамках визита состоялась также встреча с руководством МВД Беларуси.

Рафик ЕНИКЕЕВ.

Служба пробации

ПОМОЧЬ ДЕЛОМ

В числе задач службы пробации – содействие гражданам, состоящим на учете, в решении вопросов трудоустройства. Одна из форм работы в данном направлении – проведение во взаимодействии с ответственными органами ярмарок вакансий.

В Юкоричирчикском районе Ташкентской области состоялась очередная ярмарка вакансий. Она была организована на территории школы № 35. 12 организаций и предприятий различных форм собственности представили информацию о 110 свободных рабочих местах.

– Посетили ярмарку свыше 50 человек. Это не только лица, состоящие у нас на учете, но и граждане, нуждаю-

щиеся в социальной поддержке, – говорит инспектор группы пробации СОБ ОВД района старший лейтенант Назокат Файзуллаева. – Направления на трудоустройство получили 11 человек. 9 гражданам оформлены ваучеры на обучение востребованным профессиям.

Аналогичные мероприятия проходят и в других районах области.

Соб. корр.

Ташкентская область.

Фотоинформация

Tashkent Flowers Fest-2026



International cooperation



Against common threats

A meeting of the heads of the crime-fighting bodies of the Ministries of internal affairs of the CIS member states was held in Tashkent. It was attended by representatives from Uzbekistan, delegations from Azerbaijan, Belarus, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Russia, Tajikistan, Turkmenistan and BCCIC.

The minister of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, lieutenant general Aziz Tashpulatov, stressed the importance of cooperation and a unified approach in combating modern

criminal threats. The meeting discussed issues of combating the illegal circulation of narcotic drugs, «pharmacy addiction», and the online sale of narcotics.

Participants stressed the importance of strengthening joint efforts with internet service providers, banks and other organisations, as well as, they noted the need to develop cooperation in combating the distribution of narcotic drugs via information and communication technologies in 2027–2030.

Decision and implementation

Ravishing city – a peaceful city

In the city of Kokand, based on Presidential decrees, efforts have been intensified to create a safe environment in the neighbourhoods and to prevent crime at an early stage. According to lieutenant colonel Burhonjon Mamajonov, deputy head of the Kokand city police department, a staff and working groups comprising the heads of 14 agencies are operating effectively in this regard.

In the first quarter of this year, as part of the «Social prevention weeks», 936 pupils were returned to school, 148 divorces were prevented, and 229 individuals on probation were placed in employment. According to senior inspector for women's affairs, senior lieutenant Zulkhumor Hayitova, crimes committed by women have decreased by 50 percent.

A law-and-order post has been established in the «Nurafshon» neighbourhood, with 51 surveillance cameras integrated into the office of the prevention inspector, major Boburjon Akbarov. According to the mahalla chairwoman, Gulnora



Shermatova, the mahalla has moved from the «yellow» category to a «green» zone.

Approximately 320 000 people live in Kokand's 68 neighbourhoods. In the first quarter, overall crime fell by 11.4 percent, and crimes committed via information technology decreased by 47 percent. Seventy surveillance cameras and 179 intercoms have been installed in the city, and security is maintained through the «Digital safe city» system.

Human dignity is precious

Honoring our veterans

On the occasion of Remembrance and gratitude day, veterans of the World War II and those who laboured behind the front lines, residing in the Chilonzor district, were visited. The Minister of internal affairs, lieutenant general Aziz Tashpulatov, personally delivered the greetings of our head of state and presented the President's gifts.

Tamara Sokolova, a living witness to the siege of Leningrad, warmly welcomed the guests. The word most frequently emphasised in the conversations was «peace».

Presidential congratulations and festive gifts were also ceremoniously presented to Maria Degtyarova, who spent her childhood in a concentration camp. The subsequent fate of war veteran Nikolai Petrunin was linked to Tashkent,



and today he is celebrating his almost centenary.

A festive atmosphere also prevailed in the home of the veteran Anna Karimova. The life of the heroine, who took part in the war, was recognised as a symbol of labour and fortitude.

Maria Kamarova expressed her gratitude for being brought to peaceful times and for the state's attention.

Natalia Spivak, born in 1937, lost her loved ones during the Siege of Leningrad. The President's congratu-

lations and the festive gifts put the elderly woman in a celebratory mood.

Nadezhda Kudritskaya, a ninety-seven-year-old Leningrader, stressed that she never tires of telling young people about the turbulent years of the war.

Alla Funtikova, who spent her childhood in a concentration camp, also received the head of state's letter of congratulations and festive gifts with great emotion.

During a conversation with the elders, it was once again emphasised that their illustrious life journeys are an invaluable spiritual heritage for our people and serve as an example for the younger generation of loyalty to the motherland and the appreciation of peace.

Competition

A day honouring the family and values

The republican stage of the «Model family» competition, aimed at showcasing the exemplary aspects of the nation's guardians serving for the peace of the people, was held in Tashkent. The event was organised in cooperation with the Ministry of internal affairs, the Scientific research institute of family and gender, and the Committee on family and women, to mark 15 May – International family day.



Nineteen families, winners of the preliminary stage, took part in the competition and demonstrated their knowledge and creative abilities in the «Introduction», «This is my family» and «We are a reading family» categories. The participants competed against each other in contests on national traditions, family values, creative performances, and literary knowledge.

3rd place went to the family of major Nuriddin Jumayev, inspector at the Tashkent regional directorate for ensuring safety in railway transport, 2nd place went to the family of major Ihtiyor Abdullayev, an inspector at the Ministry of internal affairs Department for ideological and educational work and personnel supply, and 1st place was awarded to the family of senior sergeant Zohid Rozikov, a specialist at the Navoiy regional police department's public and traffic safety directorate.

At the end of the event, winners in various nominations were also honoured. A performance by the Ministry's palace ensemble of culture song and dances lifted the spirits of the attendees.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Munosabat

TARBIYA MAYDONI

Gazetaning «Bolajon» ilovasini oilamiz a'zolari katta qiziqish va xursandchilik bilan kutib olishdi. Ayniqsa, bolalarning quvonchi cheksiz edi. Mazkur ilovadan o'rin olgan biri biridan qiziqarli materiallar ularning ma'naviyatini oshirishi shubhasiz. Shuning barobarida, kelajagimiz egalarining bilimni boyitishi, dunyoqarashini kengaytirishi, mustaqil fikrlashini kuchaytirishi bilan ham e'tiborga molik. Ayniqsa, ibratli hikoyatlar, topishmoqlar, mantiqiy savollar hech bir bolani befarq qoldirmaydi, deb o'ylayman.

Bugungi kunda aksariyat bolalar ko'p vaqtini internet va raqamli qurilmalar bilan o'tkazmoqda. Bu jarayonda ularni zararli axborotlardan himoya qilish va foydali ma'lumotlar bilan ta'minlash juda muhim. «Bolajon» ilovasi aynan shu ehtiyojni qondiradigan, milliy qadriyatlarimizga mos, tarbiyaviy jihat-



dan boy kontentni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, ushbu ilova bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kamayishida muhim omil bo'ladi.

Nigora ABZALOVA,
podpolkovnik.

Buxoro viloyati.

Siz nima deysiz?

JINOYATCHINING BOLASI...

Kuni kecha Murojaatlar bo'limi qabulxonasiga o'rta yoshlardagi bir ayol keldi. Avvaliga gap boshlashga qiyaldi. Ko'zlari to'la yosh, ovozi titrab turibdi. Qalbida dardi tog'dek ekanini sezdim.



– Turmush o'rtog'im qamalib qoldi, – dedi u zo'rg'a. – Qishloq joyda yashaymiz, gap-so'z tez bolalaydi. Elning og'ziga elak tutib bo'lmas ekan. Xo'jaynim ehtiyotsizlik oqibatida avtohalokat sodir etdi. Narigi mashinadagi yo'lovchi vafot etgan. Butun qishlog'imizda bir gap: «Falonchi odam o'ldiribdi...»

Ayolning so'zi shu yerda uzildi. Davomi – ko'z yosh edi... Keyin o'zini zo'rg'a qo'lga olib, yana so'zida davom etdi:

– Ikki nafar farzandim bor. Biri bog'chaga qatnaydi, boshqasi maktabda o'qiydi. Qizim:

«Maktabga bormayman», – deb yig'layapti. Sinfdoshlari «Jinoyatchining bolasi», – deb masxara qilishayotgan ekan. Yaqin dugonasi ham gaplashmay qo'yibdi...

Unga qanday yordam berishni bilmasdik. Eri qasddan odam o'ldirmagan. Bu ehtiyotsizlik oqibatida yuz bergan fojia. «Falokat oyoq ostida» deyishadi-ku. Bir lahzalik bee'tiborlik, bir soniyalik xato bir insonning hayotiga nuqta qo'ygan. Ammo... «Falonchi odam o'ldiribdi». Bilib-bilmay aytilgan bir og'iz so'z bilan bir insonga «qotil» degan tamg'a bosildi.

Eng alam qiladigani, bolada nima ayb? Qiz sho'rlik maktabida bosh ko'tarolmay qolibdi. «Jinoyatchining bolasi» degan sovuq so'z uning qalbiga toshdek botgan. Bugun maktabga bormayman deb yig'layotgan qizaloq ertaga jamiyatdan uzilib qolmasligiga kim kafolat beradi? Uning qalbida yig'ilgan alam nafratga aylansa, kim aybdor bo'ladi?

Biz, kattalar har bir gapimizga javobgarmiz. «Aytilgan so'z – otilgan o'q» deb bejiz aytishmaydi. Bolaning ko'ngli guldek nozik bo'ladi. O'ylamay aytgan so'zimiz bilan uning qalb oynasini sindirmaylik, keyin butlash mushkul. Har birimizning farzandimiz borligini doim yodda tutaylik.

Biz bir narsani anglashimiz kerak. Mahkumning farzandi ham avvalo bola. Uning ham orzulari, umidlari, sha'ni, g'ururi bor. Unga tamg'a emas, mehr kerak. Unga ta'na emas, dalda kerak. Keling, bolaning qalbiga ozor bermaylik. Adolat sudda qaror topadi, lekin rahm-shafqat – jamiyatda.

Xadicha O'TAYEVA,
kapitan.

Ikkinchi imkoniyat

YANGI HAYOT ESHIGI

Ba'zan birgina xato insonning hayotini ostin-ustun qilib yuboradi. Ammo eng muhimi – o'sha xatodan qanday xulosa chiqarishi, kelgusida to'g'ri yo'lni tanlashida. Bugun jazoni ijro etish tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar adashgan insonlarga ikkinchi imkoniyat berishga qaratilmoqda.



Mahkumlarga insonparvarlik tamoyillari asosida yaratilayotgan sharoitlar ko'plarining taqdirini ijobiy tomonga o'zgartirmoqda. Endi muassasalar faqat jazo o'taydigan joy emas, balki odam o'zini angalaydigan, kasb o'rganadigan, ilm oladigan va hayotini qaytadan boshlashga tayyorlanadigan maskanga aylanmoqda.

Umida Shoumarovanning hayot yo'li ham buning yaqqol misolidir. U IIV huzuridagi JIED Birinchi mintaqaviy hududiga qarashli 21-sonli koloniyada jazo muddatini o'tayoganida bu yerda tashkil etilgan go'zallik salonida tajribali mutaxassislardan sartareshlik sirlarini o'rgandi.

Jazo muassasalarida mahkumlar uchun yaratilayotgan sharoitlar nafaqat kasb o'rganish, balki ma'naviy va intellektual rivojlanishga ham xizmat qilmoqda. Turli ma'rifiy tadbirlar, kitobxonlik kechalari, «Zakovat» intellektual o'yinlari ularning dunyoqarashini kengaytirmoqda. Darvoqe, mahkumalar o'rtasida o'tkazilgan «Zakovat» intellektual o'yinida Umidaning jamoasi faxrli birinchi o'rinni egalladi. Yaqinda sartareshlik bo'yicha u tegishli sertifikatni olib, boshqa manzil koloniyasiga o'tkazildi.

– Jazo o'tayotganimga bir yildan oshdi. Shu vaqt ichida xatoyimni anglab yetdim. Qilmishimdan qattiq pushaymonman. Ilgari hayotga yengil-yelpi qaragan ekanman. Endi esa har bir daqiqaning qadriga yetyapman. Ozodlikka chiqqach, o'z kasbim orqali insonlarga naf keltirmoqchiman. Tarix fanini yaxshi ko'raman. Oilam bag'riga qaytgach, bu yerda o'rgangan kasbimni davom ettirish barobarida, albatta, universitetga o'qishga kiraman, – deydi Umida qat'iy ishonch bilan.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadrini ulug'lashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar kasbga o'qitilyapti, ta'lim berish, ma'naviy tarbiya ishlarini kuchaytirish orqali ularning jamiyatga moslashuviga keng yo'l ochilmoqda.

Adashgan insonga berilgan ikkinchi imkoniyat nafaqat uning kelajagini, balki butun bir oilaning taqdirini yaxshi tomonga o'zgartirishi mumkin. Umida kabi mahkumlar esa bu imkoniyatni qadrlab, hayotida yangi sahifa ochishga tayyor.

Inomjon RAHIMXO'JAYEV,
mayor.

Tergovni bilimdonlar olib boradi

TO'RT-BESH TOMCHI... HAQIQAT

Kech kirib borayotgan, havo iliq, ko'chalarda esa yoshlarning shovqin-suroni avjida edi. «So'nggi qo'ng'iroq» hali-hanuz davom etayotgandi... Kimdir shodlikdan sarmast, kimdir kelajak haqida orzu qilmoqda. Ammo ayrimlar uchun bu oqshom umrbod esdan chiqmaydigan fojiga aylanishini hech kim xayoliga ham keltirmagan edi.

Besh nafar o'rtoq shahar chetida yig'ildi. Ular orasida Murodbek (voqea ishtirokchilarining ism-sharifi o'zgartirildi) ham bor edi – hali 19 yoshga ham to'lmagan, qonida shijoat qaynayotgan yigit.

– Ketdik, aylanib kelamiz! – dedi u o'ziga bino qo'yib.

Qarshisida turgan «Tracker» avtomashinasi go'yo uni chorlayotgandi. «Temir tulpor» hali rasman uning nomiga o'tmagan, biroq kaliti allaqachon qo'lida edi. Achinarlisi, Murodbek haydovchilik guvohnomasini ham olmagandi.

– Boshqara olasanmi? – so'radi do'stlaridan biri shubha bilan.

Murodbek kulimsiradi:

– Ko'rasan hozir!

Shu lahzada aql sukut saqladi, ehtiros esa tizginni qo'lga oldi. Avtomashinaga o'tirishi bilan gazni qattiq bosgan Murodbek mag'rurlik bilan ko'chaga uchib chiqdi. Avaliga hammasi ko'ngildagidek edi: shodon kulgi, baland musiqa va shamolni yorib o'tayotgan tezlik

Mutaxassislar hodisa joyiga yetib kelganida, beligacha loyga botgan avtomashina, jarohatlangan yoshlar va atrofda hukm surayotgan tushuntirib bo'lmaz vahima...

Oradan ko'p o'tmay, tergov boshlandi. Katta leytenant Farida Sultonova uchun bu shunchaki navbatdagi ish emas, balki adolatni qaror toptirish sinovi edi.

– Mashina boshqaruvida kim bo'lgan? – so'radi u sokin, ammo qat'iy ovozda.

Javoblar esa deyarli bir xil bo'ldi:

– Bilmaymiz...

– Hech kim ko'rmadi...

– Eslolmayman...

Go'yo hamma oldindan til birlashtirib olgandek. Farida ularning ko'zlariga boqdi. Qo'rquv bor, ammo haqiqatdan asar ham yo'q edi.

Keyin u jarima maydonchasiga yo'l oldi. U yerda pachoqlangan, loyga botgan «Tracker» go'yo til-siz guvohdek sokin turardi. Farida ehtiyotkorlik bilan eshikni ochdi va



katta leytenant
Farida Sultonova

tegishli! Haqiqat yuzaga chiqdi. Keyingi texnik tahlillar esa barchasini o'z o'rniga qo'ydi: haydovchi yonida o'tirgan yigit oynadan chiqib ketgan, orqadagi yo'lovchilar esa boshqa tomonda bo'lishgan. Qon izi esa aynan rul atrofida edi. Bu tasodif emas, bu – inkor etib bo'lmaz isbot edi...

Mazkur voqea Urganch tumanini IIB huzuridagi tergov guruhi surishtiruvchisi, katta leytenant Farida Sultonovaning kundalik faoliyatidan bir lavha. U yosh bo'lishiga qaramay, o'z kasbiga sidqildan yondashadigan, har bir ishda adolat mezonini ustun qo'yadigan tergovchidir.

Katta leytenant Farida Sultonova uchun tergov jarayonidagi har bir jild shunchaki navbatdagi hujjatlar to'plami emas, balki inson taqdiri va haqiqat bilan bog'liq yuksak mas'uliyat demakdir. Sinchkovligi va kasbiy mahorati zahirida esa bitta ezgu maqsad – adolatni qaror toptirish va haqiqatni yuzaga chiqarish istagi mujassam.

Farida bolaligidanoq intizomlilik va bilimga chanqoqligi bilan ajralib turdi. U IIV Xorazm akademik litseyini muvaffaqiyatli tamomlab, vazirlik Akademiyasiga o'qishga kirdi. 2022-yilda «Tergov faoliyati» yo'nalishini bitirib, xizmat faoliyatini boshladi.

Aynan Akademiyada olgan nazariy bilimlari uni bugungi kunda eng murakkab ishlarda ham haqiqatni topishga yetaklamoqda. Hozirda u tajribali ustozlari ko'magida, ular bilan yelkama-yelka turib, sidqildan faoliyat yuritmoqda.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



– yoshlikning mastona kayfiyati... Keyin esa tezlik yanada oshdi.

– Yana tezroq! – degan hayqiriqlar yangradi. Murodbek gazni oxirigacha bosdi. Shu payt... hammasi bir lahzada o'zgardi. Rul titradi, avtomashina silkinib ketdi.

– Ehtiyot bo'! – deb baqirdi mashinadagi do'stlari. Ammo kech edi. Temir panjaralar chirsillab sindi. Mashina to'g'ri kanal tomon uchdi. Suvga qulashdan oldingi o'sha bir necha soniya – umrning eng uzoq va dahshatli onlari edi. Qichqiriqlar... Qo'rquv... Va sovuq sukunat...

ichkarini sinchkovlik bilan ko'zdan kechira boshladi. Har bir chiziq, har bir iz u uchun muhim ahamiyatga ega.

Daf'atan u to'xtab qoldi. Rul yonidagi havo aylantirish teshikchasida nimadir ko'zga tashlandi. Egilib qaradi: qotib qolgan 4–5 tomchi qon izi... Kichik, ammo tergov taqdirini hal qiluvchi muhim dalil.

– Mana sen qayerdasan... – pichirladi u past ovozda.

Ekspertiza javobi kutilgan kunlar yillardek uzoq tuyuldi. Nihoyat, natija keldi: qon – Murodbekka

Asr vabosi

Befarqlikka o'rin yo'q

Joriy yilning 1-apreldan 1-mayga qadar o'tkazilgan «Yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishiga qarshi kurash oyligi» doirasida respublikamizda keng ko'lamlı targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Aholi, ayniqsa, yosh avlod vakillarida «asr vabosi»ga nisbatan mustahkam immunitetni shakllantirishga qaratilgan mazkur jarayondan Qashqadaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi «Dehqonobod» temiryo'l bekati bo'linmasi xodimlari ham chetda qolmadi.

Bo'linma xodimlari xizmat hududida xavfsizlikni ta'minlash bilan bir qatorda, temiryo'l atrofida joylashgan ta'lim muassasalari va mahallalarda bo'lib, yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazishdi. Xususan, Dehqonobod tumanidagi 2-sonli umumta'lim maktabida tashkil etilgan tadbirda giyohvandlik moddalari va kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining inson salomatligiga, kelajagiga yetkazadigan ayanchli oqibatlarini hayotiy misollar bilan tushuntirildi.



Shuningdek, ishtirokchilar ijtimoiy tarmoqlar, xususan, «Telegram» messenjeri orqali tarqatilayotgan shubhali reklama va xabarlarga aldanmaslik, giyohvandlik moddalari savdosiga oid takliflarga duch kelganda zudlik bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish zarurligi haqida ogohlantirildi.

Bu kabi targ'ibot tadbirlari yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va ularni turli zararli illatlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

O'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Halollikni shior qilgan xodimlar

GURUNGLASHISH NASIB ETMADI...

– Yaqinda chet eldan uyiga qaytgan H.F.ning xorij mam-lakati hududida jinoyat xatti-harakatlar sodir etganligi aniqlandi. Shundan so'ng unga nisbatan surishtiruv ish-larini boshladik, – deydi Jondor tumani IIB TQX Terrorizmga qarshi kurashish guruhi katta tezkor vakili, kapitan O'g'lon-jon Usmonov. – Fuqaro avvaliga o'z aybini tan olmaslikka harakat qildi. Ilojini topolmagach, ochig'ini aytib, qonuniy chora ko'rmaslik evaziga 500 AQSH dollari taklif qildi. Uni pora berish ham, olish ham og'ir jinoyat ekanligi haqida bir necha marotaba ogohlantirdik. Shunga qaramay, niyatidan qaytmadi.

H.F. kapitan O'.Usmonovga piyola choy ustida gurun-glashishni taklif qilaverdi. Bu

holga chek qo'yish uchun katta tezkor vakil tuman IIB bosh-lig'iga bildirgi bilan murojaat qildi. Ushbu holat yuzasidan huquq-tartibot organlari xo-dimlari tomonidan tezkor tadbir o'tkazildi. H.F. katta tez-kor vakilga masalani o'z foy-dasiga hal qilib berish evaziga 500 AQSH dollarini pora tariqasida berayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.



Mazkur holat bo'yicha ji-noyat ishi qo'zg'atilib, hozirda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Darhaqiqat kapitan O'g'lon-jon Usmonovga o'xshagan o'z burchiga sodiq, halol xo-dimlar safi kengaygani sayin xalqimizning ichki ishlar or-ganlariga, pirovard natijada

esa, davlatimizga ishonchi ortib boraveradi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

O'qishni tavsiya qilaman

Falsafiy mushohadalarga yo'g'rilgan

Millionlab turk kitobxonlari mehrini qozonib ulgurgan turk yozuvchisi Mirach Chag'ri Oqtoshning «Hayot yutqazgan joyingdan boshlanar» kitobi o'zbek tiliga tarjima qilinib, o'quvchilar hukmiga taqdim etildi.

Asar psixologik va romantik drama janrida yozilgan bo'lib, yo'qotish va og'riqdan keyingi hayot haqida hikoya qiladi. Qahramonning ichki iztiroblari orqali muallif insonning qayta tiklanish jarayonini ta'sirchan tarzda ko'rsatadi. Asarda muhabbat, kechirish va umid

lohnning bir sinovi ekani, ular qarshisida esankiramay, muammolarga yechim izlash va doimo olg'a intilish zarurligini uqtiradi.

Kitobni mutolaa qilar ekansiz, inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi fikrlar e'tiboringizni tortadi. Asar quyidagi ta'sirchan satrlar bilan boshlanadi:

Darveshdan so'rashdi:

– Hamma narsamizni yo'qotdik, endi nima qilamiz?

Darvesh javob berdi:

– Choy quy, yangidan boshlaymiz.

Bu satrlar kitobning butun ruhi-ni ifoda etadi. Asar insonni ruhan poklanishga, hayotga boshqacha nigo bilan qarashga undaydi.

Kitobning 22-sahifasiga yetganin-gizda: «Xo'sh, davom etasanmi yoki tugatasanmi?» degan savolga duch kelasiz. Keyingi sahifani ochsangiz esa: «Demak, davom etmoqchisan», degan jumlar qarshi oladi. Bu go'yo hayotning o'ziga o'xshaydi: ba'zan davom etish qiyin kechadi, ammo inson harakatdan to'xtamas, yo'lsiz-lik ham, natijasizlik ham bo'lmaydi.

Kitobdagi eng ta'sirli fikrlardan biri «Bundan ham battar bo'lishi mumkin edi» degan jumladir. Mu-allif shu orqali insonni har qan-day vaziyatda ham shukronalikni unutmaslikka, qiyinchiliklar qarsh- isida tushkunlikka berilmaslikka unday-di. Chunki har bir sinov ortida saboq va umid yashiringan bo'ladi.

Ehtimol, hayot insonni aynan yiqil-gan joyidan qayta turishga o'rgatar... Kitob o'quvchini ana shu haqiqat haqida chuqur o'ylashga chorlaydi.

Martaba QURONBOYEVA,
O'zbekiston jurnalistika
va ommaviy kommunikatsiya
universitetining 1-kurs talabasi.



g'oyalari orqali ruhiy tiklanishning ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, hayot falsafasiga oid mulohazalar o'quv-chini chuqur o'yga toldiradi.

Muallif jahonga mashhur mutafak-kirlar va donishmand allomalarning purma'no fikrlaridan iqtiboslar kel-tirib, falsafiy mushohadalar yuritadi. U insonlarni ezgulikka, xayr-u saxo-vatli bo'lishga, kek saqlamaslikka va sabr-qanoat bilan yashashga chorlaydi. Shuningdek, hayotdagi qiyinchiliklar Al-

Bu – qiziq

TELEGRAFDAN INTERNETGACHA:

Aloqa tarixi muzeyiga sayohat

Aloqa tarixi muzeyida bo'lganmisiz? Muzeyga kirgan inson aloqa-ning butun bir tarixiy yo'lini bosib o'tgandek bo'ladi. Mazkur muzeyga 2008-yilda asos solingan bo'lib, u 2009-yil 24-oktabr kuni rasman faoliyat boshlagan. Bugungi kunda muzey mamlakatimizdagi eng yaxshi ilmiy-texnikaviy muzeylardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu yerda pochta xizmati, telegraf, radioaloqa, radioeshittirish, televi-deniy, kosmik aloqa hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanish tarixi namoyish qilinadi.

Ekspozitsiyalar-ni tomosha qilar ekansiz, bir vaqt-lar axborot qan-day yetkazilganini, aloqa vositalari qanday taraqqiy etganini o'z ko'zin-giz bilan ko'rasiz. Karvonlar va cho-parlar orqali xabar yuborilgan davrlar-dan tortib, bugungi internet va raqamli texnologiyalar zamonigacha bo'lgan yo'l juda qiziqarli tarzda aks ettirilgan.

Muzeyda qadimiy telegraf quril-malari, ilk telefon apparatlari, eski radiolar, birinchi kompyuterlar va turli noyob texnika namunalari saqlanadi.



Shuningdek, u O'zbekiston pochta markalarining asosiy saqlovchilaridan biri hisoblanadi.

Ayni vaqtda muzey fondida 18 ming 266 ta eksponat mavjud. Shundan 10 ming 995 tasini asosiy texnika vosi-talari va markalar tashkil etsa, 7 ming

271 tasi ilmiy-ko'makchi eksponatlar hamda kitoblardan iborat.

Muzey binosi 3 qavat, yerto'la va maxsus ko'rgazma zallaridan tashkil topgan bo'lib, har bir bo'lim o'ziga xos tarixiy muhitni aks ettiradi.

Eng qiziqarli jihatlardan biri – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Kari-mov foydalangan telefon appa-rati ham aynan shu muzeyda saqlanadi. Ushbu noyob eks-ponat tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Agar siz texnika tarixi, aloqa vositalari taraqqiyoti yoki nostalgik muhitga qiziqsangiz, Aloqa tarixi muzeyiga albatta boring. Bu maskan nafaqat muzey, balki inson sivilizatsi-yasining axborot almashinuvi borasida bosib o'tgan yo'lini namoyon etuvchi noyob xazinadir.

Farangiz QURBONOVA,
O'zbekiston jurnalistika
va ommaviy kommunikatsiya
universitetining 1-kurs talabasi.

Bu yo'llar ko'p qadim yo'llar

Tramvaylar jiringi HAMON QULOQLARDA

Bugun zamonaviy megapolis qiyofasida gavdalanayotgan shahrimiz yo'llari turli xil transport vositalariga to'la. Qachonlardir bu yo'llar toshli yo'l bo'lib, unda odamlar asosan ot va tuyalarda o'z manzillariga yetib olishgan. Keyinchalik Toshkentda aholi sonining keskin ortishi natijasida yevropalik mutaxassislar ishtirokida Markaziy Osiyoda ilk bor tramvay harakati yo'lga qo'yilgan.

Tramvay tarixi 1896-yilda Toshkent shahar ma'muriyati Belgiyaning «Toshkent tramvayi» aksiyadorlik jamiyati bilan shartnoma tuzgan kundan boshlangan.

Shahar aholisi uni «konka» deb atardi. Ba'zilar unga yigirmanchi asr mo'jizasidek qaragan. O'shanda 30 ta konkaga 230 ta ot xizmat qilgan. Bu yangilik

nligi 26,5 kilometr bo'lgan beshta yo'nalishda xizmat qila boshlaydi.

Toshkentda o'sha davrda elektr energiyasi yetarli darajada bo'lmaganligi sababli, 1913-yilda Germaniyadan Toshkent tramvayi uchun doimiy elektr tokini ishlab chiqaradigan maxsus dizel mashinasini olib kelishga qaror qilindi. Elektr tramvaylar tez orada konkadan ustun ekanini isbotladi. Birinchidan, tezligi oshdi, ikkinchidan, vagonlar saloni sezilarli darajada kengaydi, eng muhimi, ekspluatatsiya xarajatlari kamaydi.

Elektr tizimiga o'tish juda katta yangilik bo'lgan. Belgiyadan keltirilgan elektr toki bilan ishlaydigan tramvaylar shahar jamoat transportining rivojlanishida muhim o'rin tutdi.

XX asrning 40-yillariga qadar tramvay shahar transportining deyarli yagona ommaviy turi edi. Birinchi tramvay ertalab soat 4 dan harakatni boshlagan, oxirgisi esa ishini kechasi soat 24 da tugatgan.

1982-yilda tramvaydan qariyb 140 million kishi, ya'ni shahar transportining barcha turlari bilan tashiladigan yo'lovchilar umumiy sonining 20 foizdan ortig'i foydalanagan. Toshkent tramvay tarmog'i uzunligi bo'yicha MDH shaharlari orasida Sankt-Peterburg va Moskvadan keyin uchin-

Toshkentda jamoat transportining tuzilishiga asos bo'lgan.

Birinchi yili tramvay xizmatidan bir milliondan ziyod kishi foydalangan. O'sha paytda yo'l haqi 1-darajali vagonlarda 6 tiyin, 2-darajali vagonlarda 5 tiyinni tashkil etardi. Aravakashlar (kucherlar)ning ish haqlari yuqori bo'lgan, chunki hamma yangi transportdan foydalanishga oshiqardi. Ayrim yo'lovchilar uchun bu manzilga yetib olish bo'lsa, boshqalar uchun bo'sh vaqtini o'tkazish yoki ko'ngilxushlik edi.

Biroq otlar tortib yuradigan tramvaylarning o'ziga yarasha kamchiliklari bo'lgan. Bular otlarni boqish va parvarish qilish, shuningdek, yog'ingarchilik va sovuq haroratda otlar yaxshi yura olmasligi

bilan bog'liq muammolar edi. Shu bois 1907-yilda shahar hokimiyati Toshkent tramvayini elektr kuchiga o'tkazish to'g'risida aksiyadorlik jamiyati bilan yangi shartnoma tuzadi. 1912-yil 30-dekabrda 50 ta motorli va 20 ta tirkamali vagon umumiy uzu-



Oradan to'rt yarim yil o'tgach, 1901-yilda Toshkent ko'chalarida birinchi tramvay paydo bo'ldi. Uning yo'li Ko'kchadan yangi shahar markazigacha davom etdi. Birinchi tramvay temiryo'l bo'ylab bir juft ot tortib yuradigan yog'och vagondan iborat edi.



chi o'rinda turgan. Butun shahar tirbandlikda qolganida ham, tramvay harakatlanishni davom ettirardi.

Shunday qilib, tramvay bilan shahar ham o'zgardi. Toshkentliklar bu ajoyib transport turini hanuz unutmaydi.

2016-yil bahorida avtotransport vositalari sonining ko'payishi, ko'cha tarmog'i uzunligining yetarlicha bo'lmaganligi va tramvay yo'nalishlarining samarasiz ishlashi bilan bog'liq sabablarga ko'ra, Toshkent tramvayining to'liq yo'pishi e'lon qilinadi.

2016-yil 2-may kuni Toshkent tramvayi tarixga aylandi, biroq tramvaylar jiringi hamon xotiramizda qoldi.

G'ayratulla SHUKUROV,
o'z muxbirimiz.

Bemor

Sog'lom kishi osmonga, bemor esa eshikka qaraydi. Osmondan yoqqan yomg'ir-qor qanchalik ko'p va shiddatli bo'lmasin, dard chekayotgan inson ko'ziga ko'rinmaydi, momoqaldiroq qancha vahimani guldiramasin, qulog'iga kirmaydi. Boz ustiga, tabiat hodisalari o'tkinchi – ular tezda unutiladi. Ammo bemor holidan xabar olish uchun kelgan odamning darvozani ohista taqillatgani, «Hoy, kim bor?» – degan past tovushi ham baland va yoqimli eshitiladi. Ayniqsa, xasta yotgan kishiga bo'sag'ada kulib turgan inson chehrasi ko'zga yaraqlab ko'rinadi. Bu ko'rinish, bu diydor uning xotirasiga mangu muhrlanadi.

Yurakda qolgan dog'

Bir tanishim oliygohning sirtqi bo'limiga o'qishga hujjatlarini topshirmoqchi bo'lib, ruxsat olish uchun ishxonasidagi rahbariga ariza yozibdi. Rahbar arizaga «Sirtidan o'qishga qarshi emasman» deb imzo qo'yib beribdi. Ertasi kuni tanishim uzrli sabab tufayli ishga biroz kech kelibdi. Boshliq esa shuni bahona qilib, arizani yirtib tashlabdi.

Shunda boshliq o'rinbosari oraga tushib: «Hay-hay boshliq, jahl ustida bunday qilmang. Hali ham kech emas, arizani qayta yozsin, siz rozilik bildiring»

deya iltimos qilibdi. Ammo rahbar fikridan qaytmabdi.

O'rinbosar bu voqeadan afsuslanib: «Bu kunlar o'tib ketadi, biroq bu ishingiz bir umr uning yodidan chiqmaydi», degan ekan bosh irg'ab.

– O'sha inson aytganidek bo'ldi. Oradan qancha yillar o'tdi. Lekin o'sha voqea bir umr yuragimda o'chmas dog' bo'lib qoldi, – deydi tanishim ma'yus tortib.

Shuhrat RO'ZIYEV,
jurnalist.

Mulohaza

«ETI SIZNIKI, SUYAGI BIZNIKI»

Bu – bolani kaltaklashga ijozat degani emas

«Yangiyo‘lda bog‘cha opa bolalarni kaltakladi», «Xorazmda xususiy bog‘chada bolalar kaltaklangani aytilmoqda»... Ochig‘i, ijtimoiy tarmoqlarda shu mazmundagi xabarlar ko‘payib ketdi.

Jajji va beg‘ubor bolajonlarga qo‘l ko‘tarishdek og‘ir gunohga qo‘l urish uchun kimsa naqadar toshbag‘ir bo‘lishi kerak? «Hayot gullari», «Jannat rayhonlari» deb e‘zozlanadigan bolalar qanchalik sho‘x-shaddod bo‘lmasin, ularga nisbatan jismoniy kuch ishlatish uchun kishida insoniylikdan asar ham qolmagan bo‘lishi lozim.

Achinarlisi va og‘riqlisi shundaki, bunday holatlarning asosiy ishtirokchilari mehr-shafqat timsoli bo‘lgan ayollar. Nahotki, zamonamiz ayollari shu qadar mehri bo‘lib ketayotgan bo‘lsa? Nahotki, onalik fitratiga ega zotlar jajji vujudlarga zulm qilishdan tap tortmasa?

YUNISEF ma‘lumotlariga ko‘ra, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida zo‘ravonlik holatlari bolaning ruhiy rivojlanishiga o‘nglab bo‘lmas salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra esa, zo‘ravonlikka duch kelgan bolalar keyinchalik ijtimoiy munosabatlarda muammolarga duch kelishi va agressiv xulq namoyon qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Afsuski, ochiqalayotgan holatlar aslida sodir bo‘layotganlarining ma‘lum qismigina, xolos. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachilar tomonidan bolalarga qo‘l ko‘tarish va zo‘rlilik ishlatish holatlari asosan nodavlat hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi muassasalarda ko‘p uchramoqda. Agar muassasada bo‘lgan vaqtda bolalarning sog‘lig‘i va xavfsizligi uchun mas‘uliyat to‘liq rahbar, ya‘ni tadbirkorning zimmasida ekanini inobatga olsak, masala yanada oydinlashadi. Biroq tadbirkorning mas‘uliyati davlat nazoratini inkor etmaydi. Mazkur muammo yechimi va tizimdagi tartib uchun baribir mutasaddi idoralar javobgar.

Biz ushbu og‘riqli masala bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan **Jizzax viloyati Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Temur Sultonovga** murojaat qildik.

– Bugungi kunda viloyatimizda bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 79 foizga yetdi. E‘tiborlisi, bunda nodavlat sektorning ulushi 42,3 foizni tashkil etmoqda, – deydi suhbatdoshimiz. – Sohada xususiy sektorning kengayishi tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va bandlikni ta‘minlash bilan birga, zimmaga ulkan mas‘uliyat va javobgarlikni ham yuklaydi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida kuzatilayotgan noxush holatlarning oldini olish uchun biz viloyatdagi har bir muassasada faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarni ularning ichki dunyosini va kasbiy faoliyatiga ruhiy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida psixologik testdan o‘tkazdik.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida zo‘ravonlik holatlari bolaning ruhiy rivojlanishiga o‘nglab bo‘lmas salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.



Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosidagi, xususiy va oilaviy bog‘chalarda videokuzatuv nazoratini o‘rnatish hamda videoarxivlarni muntazam saqlash talabi qat‘iy qo‘yilmoqda.

Bog‘chalardagi zo‘ravonlik muammosini tamoman hal etish uchun faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmaslik kerak. Buning uchun tarbiyachilarni qayta tayyorlash, nazorat tizimini takomillashtirish, asosiysi, sog‘lom ta‘lim-tarbiya muhitini yaratish va bu jarayonda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur.

Muammoning ildizini, ya‘ni, asl sabab va omillarini o‘rganish maqsadida tarbiyachilarga ham quloq tutishni lozim topdik.

– To‘g‘ri, ko‘pchilik bu kasbni sevib tanlaydi. Ammo og‘ir ish rejimi va sharoitlar vaqt o‘tishi bilan tarbiyachida ruhiy zo‘riqishni keltirib chiqaradi, – deydi ismini oshkor qilishni istamagan tarbiyachilardan biri. – Masalan, boshqa sohalardan farqli o‘laroq, bizda aniq belgilangan tushlik vaqti yo‘q. Buning ustiga, ayrim ota-onalarning mas‘uliyatsizligi sabab ish vaqtimiz kechki soat oltidan keyin ham davom etadi. Natijada tarbiyachi ham uy, ham ishdagi javobgarlik, yuqori bosim sabab ba‘zan o‘zini nazorat qilolmay,

nomaqbul harakatlarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Albatta, bunday holatlarni hech qanaqasiga oqlab bo‘lmaydi.

Jizzax shahridagi «Inson manfaatlari» nodavlat notijorat tashkiloti rahbari, psixolog Gulchehra Xidirova mazkur og‘riqli masalaga quyidagicha munosabat bildirdi:

– Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bog‘chalardagi zo‘ravonlik holatlari zamirida bir nechta omillar yotadi. Ular orasida kadrlar tayyor-

gacha ta‘lim tizimi xodimlarining metodik mahoratini oshirish jarayonlariga nodavlat MTT tarbiyachilari ham keng jalb etilmoqda.

– Ilgari asosan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xodimlari bilan ishlagan bo‘lsak, endilikda joylarda sayyor kurslar tashkil etish orqali xususiy va oilaviy bog‘cha vakillarini ham qamrab olyapmiz, – deydi viloyat **Pedagogik mahorat markazi direktori Ijod Ahmedov.**

– Shu kunga qadar G‘allaorol, Baxmal va Sharof Rashidov tumanlarida 222 nafar tarbiyachi uchun o‘quvlar tashkil etildi. Ularga zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birga, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishning huquqiy asoslari, sohadagi jinoiy javobgarlik hamda bola bilan samarali ishlashning psixologik ko‘nikmalari o‘rgatildi.

Darhaqiqat, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va mutasaddi idoralar tomonidan nazoratni kuchaytirish, videokuzatuv tizimini joriy qilish va muntazam tekshiruvlar o‘tkazish bilangina muammoni to‘liq hal etib bo‘lmaydi. Buning uchun tarbiyachilar uchun doimiy seminarlar, psixologlar ishtirokida mashg‘ulotlar tashkil etish, ish sharoitlarini yaxshilash, guruhlardagi bolalar sonini me‘yorda saqlash hamda har bir muassasada bolalar va xodimlar bilan ishlaydigan shtatli psixolog faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarur. Muhimi, bolaga ehtiromga loyiq shaxs sifatida qarash ko‘nikmasini shakllantirish kerak. Zero, bugun bog‘chada tarbiyalanayotgan bola – ertangi jamiyatimizning fuqarosidir.

...Qadimda ota-onalar farzandini ustozga topshirayotib, «Eti sizniki, suyagi bizniki» deyishganida, bolani kaltaklash yoki xo‘rlashni emas, balki uning kamoloti va tarbiyasi uchun butun mas‘uliyatni ustozga ishonib topshirishni nazarda tutishgan. Bu ibora zamirida zulm emas, balki cheksiz ishonch va zahmatkash ustoz mehnatiga bo‘lgan ehtirom mujassam bo‘lgan. Niyatimiz – ayrim «tarbiyachilar»ning bugungi kundagi xatti-harakatlari bu muqaddas ishonchga soya solmasin.

Muqaddas SAPAROVA, o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi, xususiy va oilaviy bog‘chalarda videokuzatuv nazoratini o‘rnatish hamda videoarxivlarni muntazam saqlash talabi qat‘iy qo‘yilmoqda.

Bundan tashqari, ayrim xodimlarning o‘zi ham bolaligida qat-tiqqo‘llik qurboni bo‘lgan va buni «normal» deb qabul qiladi.

garligining pastligi, bolalar psixologiyasini yetarlicha bilmaslik va surunkali emotsional charchoq eng muhimlaridir.

Tarbiyachi nega bunday yo‘lga kiradi? Doimiy shovqindan tashqari oylik past, ish soati uzun, sharoit og‘ir bo‘lsa – bu insonda asabiyligni oshiradi. Charchoq haddidan oshganda, o‘zini nazorat qilish qobiliyati pasayadi. «Qiyin bola» bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan tarbiyachi esa zo‘ravonlikni «eng oson chora» deb o‘ylaydi. Bundan tashqari, ayrim xodimlarning o‘zi ham bolaligida qat-tiqqo‘llik qurboni bo‘lgan va buni «normal» deb qabul qiladi.

Muammoning yechimi uchun har bir tarbiyachi emotsional intellektni rivojlantirishi, stressni boshqarishni o‘rganishi shart. Jahl chiqqanda darhol reaksiya qilmay, biroz tanaffus (pauza) qilish, urish o‘rniga tushuntirish va rag‘batlantirish usullarini qo‘llash, eng muhimi, dam olish va ruhiy tiklanishga vaqt ajratish juda muhimdir.

Quvonarlisi shundaki, joriy yildan boshlab Jizzax viloyatida maktab-

Insonparvarlik

YARASHUVGA NIMA YETSIN

So'nggi yillarda huquq tizimida insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday muhim mexanizmlardan biri yarashuv institutidir.

Mazkur institutning asosiy mazmuni shundan iboratki, ayrim turdagi jinoyatlar sodir etilganda, agar aybdor shaxs o'z aybini tan olsa, jabrlanuvchi bilan kelishuvga erishsa hamda yetkazilgan zararni qoplasa, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Amaliyotda yarashuv jarayoni bir nechta muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, jabrlanuvchi tomonidan tegishli ariza beriladi. Unda yetkazilgan zarar bartaraf etilgani uchun ishni tugatish iltimos qilinadi. Bunda eng muhim jihat – yarashuv ixtiyoriy bo'lishi shart. Hech qanday bosim, majburlash yoki aldovga yo'l qo'yilmaydi. Shundan so'ng surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror ish holatlarini o'rganib chiqib, ayblanuvchining roziligi asosida ishni sudga yuboradi.

Sud, o'z navbatida, barcha holatlarni ko'rib chiqib, aybdor shaxs aybini tan olganligini, zararni qoplaganligini, jabrlanuvchi bilan yarashuvga erishilganligini va bu jarayonda hech qanday bosim bo'lmaganligini o'rganadi. Sud muhokamasi jarayonida tomonlar eshitaladi va barcha shartlar to'liq bajarilgan taqdirdagina ish tugatiladi. Bu yerda yana bir muhim jihatga e'tibor qarantish lozim. Yarashuv barcha turdagi jinoyatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Qonunchilikda aniq belgilab qo'yilgan holatlar mavjud bo'lib, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan, shuningdek, sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar uchun yarashuv tatbiq etilmaydi.

Yarashuv institutining jamiyat uchun ahamiyati beqiyos. Birinchidan, u taraflar o'rtasidagi nizoni kelishuv yo'li bilan hal qilish imkonini beradi. Natijada ayblanuvchiga jazo tayinlanmaydi. Ikkinchidan, jabrlanuvchi uchun ham bu mexanizm manfaatli, chunki u o'z zararini tez va samarali qoplatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur institut huquqiy madaniyatni oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini anglaydi, muammolarni sudgacha hal qilishga intiladi.

Yarashuv instituti – bu adolat va insoniylik uyg'unlashgan mexanizmdir. U nafaqat jinoyat ishlarini samarali hal etish, balki jamiyatda barqarorlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois uning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va ushbu institutni amaliyotda to'g'ri qo'llash dolzarb vazifalardan biridir.

Shahboz MURTAZOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi
3-bosqich talabasi.

Qonunchilikdagi yangiliklar

OBI HAYOT QADRI

Suvlarni ifloslantirganlik, shuningdek, suv obyektlariga oqova suvlarni oqizishga yo'l qo'yish shartlari to'g'risidagi talablarni buzganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lanishi lozim bo'lgan kompensatsiya to'lovining 10 baravari miqdorida jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan yoki ularga birlashtirilgan hududdagi daraxtlarni muhofaza qilish va saqlashga doir qonunchilikda belgilangan choralarni ko'rmaganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan atrof-muhitga yetkazilgan zararining 5 baravari miqdorida jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Qonunchilikdagi ushbu o'zgarishlar joriy yil 5-avgustdan e'tiboran kuchga kiradi.

Huquqiy asosi: O'zbekiston Respublikasining «Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-1143-son qonuni.

BILARMIDINGIZ?

Olimlar UNESCO uchun dunyoning 122 davlatidagi suvlarni tadqiq etishdi. Qarangki, eng toza suv Finlandiyada ekan.

Yer yuzining 70 foiz qismi suv bilan qoplanganiga qaramay, bu suvning 1 foizigina ichishga yaroqli.

Dunyodagi ichimlik suvini o'zida mujassam etgan eng yirik suv havzasi Rossiyada joylashgan Baykal (Boyko'l) ko'lidir.

Salomatlik saboqlari

YURAKKA QUVVAT, TANGA DARMON

Hozirgi mavsumning eng sevimli va nodir ne'matlaridan biri hisoblangan gilos nafaqat mazali, balki inson salomatligi uchun juda foydali. Ayniqsa, yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Gilosni me'yorida iste'mol qilish organizmdagi zararli moddalarni chiqarishga ko'maklashadi. U tabiiy ravishda organizmni tozalovchi meva sifatida ham qadrlanadi. Bu mahsulot yurak faoliyatini qo'llab-quvvatlab, qon bosimini me'yorda saqlashga yordam beradi, qon aylanishini yaxshilaydi va charchoqni kamaytiradi.

Ushbu meva tarkibida organizm uchun zarur bo'lgan vitamin va minerallar ko'p. Jumladan, C vitamini immunitetni kuchaytiradi, B guruhi vitaminlari asab tizimi va energiya almashinuvi uchun muhim, A vitamini ko'z va teri uchun foydali, kalsiy suyak va tishlarni mustahkamlaydi, kaliy yurak faoliyati va qon bosimini

me'yorda ushlaydi, magniy asab va mushak tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, temir moddasi esa qon hosil bo'lishida ishtirok etadi.

Mutaxassislar pishiqchilik paytida gilosni to'yib iste'mol qilishni tavsiya etadi, chunki u organizmni turli infeksiyalardan himoya qiluvchi va yangi immun hujayralari paydo bo'lishiga ko'maklashuvchi foydali moddalarga boy. Har kuni 2-3 mahal bir hovuchdan gilos iste'mol qilish qon tarkibida xolesterin miqdorini sezilarli darajada kamaytirib, xolesterin tugunchalari paydo bo'lishining oldini oladi.

U parhez qilayotganlar uchun o'ta mos tamaddi bo'lib, 100 gramda atigi 70 kilokaloriya mavjud.



Gilosda ko'p uchraydigan pektin moddasi oshqozon-ichak tizimining sog'lom ishlashi uchun muhim element hisoblanib, ovqat hazmini yaxshilaydi va moddalar almashinuvi tezlashtiradi. Tarkibidagi antioksidantlar esa artrit, qandli diabet, gipertoniya va saratonning oldini olishga yordam beradi.

Ushbu meva kuchli antioksidant va quvvat manbai. Shu bois u hujayralarni zararli ta'sirlardan himoya qiladi, yallig'lanishni kamaytiradi. Shuningdek, uyqu sifati-

ni yaxshilashga yordam beradi va qarish jarayonini sekinlashtiradi.

Gilosni me'yorida yeyish juda muhim bo'lib, ortiqcha iste'moli oshqozon faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, hazm tizimida noqulaylik keltirib chiqarishi, qabziyat yoki diareyaga sabab bo'lishi mumkin.

Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi kardiolog-shifokori Gulnora ISMOILOVA tavsiyalari asosida Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda.)

– Adashmasam, Rut Mudisiz, shundaymi? – dedi u. – Keling, o'tiring. Xo'sh, xonim, do'stim sizga rejamiz haqida gapirib berdimi?

– Yo'q.

– Unday bo'lsa, ijozatingiz bilan o'zim aytib bersam, – dedi u kursiga qulayroq joylashib. – Bu juda oddiy, – davom etdi u stolga qahva qo'yayotgan do'stini kuzatib. – Sizning kleptomaniya, ya'ni o'g'rilikka moyillik ruhiy kasalligiga chalinganingizdan xabardormiz. Lekin bundan hecham tushkunlikka tushmang. Bu sizning jinoyatchi ekaningizni anglatmaydi. Biz sizning kasalingizni hurmat qilamiz. Shuning uchun sizga kichkinagina taklifimiz bor. Uni rad etmaysiz, degan umiddamiz, aks holda...

– Buni unga tushuntirdim, Garri.

– Yaxshi. Unday bo'lsa, masalaning bu tomoniga to'xtalib o'tirmayman. Ammo nima bo'lganda ham, siz xavfsizlikda ekaningizni yoddan chiqarmasligingizni istardim. Tushunyapsizmi? Ya'ni, taklifimizni amalga oshirsangiz, sizni hibsga olishmaydi.

– Hibsga? – qo'rqib ketdi Rut.

– Bilasizmi, qonun bo'yicha

sizni mayda o'g'riliklar uchun hibsga olish mumkin emas. Bunga allaqachon amin bo'lgansiz. O'g'rilik qilmaslik qo'lingizdan kelmagani uchungina o'g'irlaysiz: boshqa sabab yo'q. Agar sizni tutib olishsa, hechqisi yo'q, tinchgina o'g'irlangan narsani qaytarib berasiz.

– Hech narsaga tushunmayapman, – deyarli baqirib yubordi ayol.

– Iltimos. Tushuntirib berishga ijozat bering. Sizni uch marotaba qo'lga olishganini bilamiz.

Rutning a'zoyi badaniga titroq kirdi.

– Bu sizni kleptoman deb tan olishganidan dalolat beradi. Do'kon egalari va politsiyachilar siz haqingizda ma'lumotga ega. Agar siz ip g'altagiga qaraganda ancha qimmatroq narsani o'g'irlasangiz ham...

Rutning ko'zlari kattalashdi, erkak istehzoli kuldi.

– Ko'rib turibmanki, fikrim sizga tushunarli bo'ldi, Mudi xonim. Endi sizni rejamiz bilan tanishtirsam. U qo'lga bir varaq qog'oz oldi.

– Mana qilishingiz zarur bo'lgan ishlar. Ertaga soat 13:15 da siz 47-ko'chadagi «Trevellz» nomli do'konga kirasiz. U yerga avval bormagan bo'lishingiz ham mumkin. Ushbu muhtasham zargarlik do'koni «Tiffani» kabi mashhur bo'lmasa-da, o'ta nufuzli hisoblanadi. Siz mana bu chizmada ko'rsatilgan muayyan bir peshtaxtaga yaqinlashib, sotuvchini suhbatga chorlaysiz. Undan u-bu narsani ko'rsatishini so'raysiz. Sotuvchi siz bilan band bo'lgan vaqtda, do'konda besaranjomlik boshlanadi. Sotuvchi sizni peshtaxta yonida yolg'iz qoldirishga majbur bo'ladi. U butun diqqatini to'polonga qaratadi. Sizda esa javohir to'g'nog'ichni sezdirmay olishga imkon tug'iladi. Taqinchoqni olib, eshikdan tashqariga chiqasiz. Bor gap shu.

Rutning a'zoyi badani muzlab qoldi.

– Qochishga hojat yo'q, tushunyapsizmi?

Eshikdan chiqasiz, xolos. Ko'chada qo'lida sariq qopqoqli idish tutgan, bolalarni himoyalash jamg'armasi uchun pul yig'ib yurgan odamni ko'rasiz. Brilliant to'g'nog'ichni uning qo'lidagi idish ichiga tashlab qo'ysangiz bo'ldi. So'ngra muyulishga qarab yurasiz. U yerdagi avtoturargohda sizni taksi kutib turadi. Mashinaga o'tirib, o'z manzilingizni aytasiz. Shu, xolos.

Ayol bir so'z ham deya olmadi. Eshikka, keyin derazaga bema'no qarab qo'ydi. Qahvani lablariga yaqinlashtirdi, biroq u sovib qolgan va bemaza edi.

– Men bunday qilolmayman, – pichirladi u. – Bu qo'limdan kelmaydi.

– Aytganimdek, – dedi Garri, – siz uchun bu mutlaqo bexatar. Qo'rqishga hojat yo'q. Agar sizni tashqariga chiqishingizdan avval to'xtatib qolishsa, shunchaki o'zingizni ularning qo'lga topshiring. «Trevellz»da sizning... kasalligingiz haqida xabar

Genri SLEZAR

TARKI ODAT – AMRI MAHOL



topishgach, hech narsa qilisholmaydi. Bu shunchaki yana bir... tibbiy hodisa hisoblanadi. Bor gap shu.

«Trevellz» do'konining old qismi nozik did bilan bezatilgan. Har bir vitrinada bittadan ortiq qimmatbaho tosh qo'yilmagan. Har birining qimmatbaho ekanligini aniqlash uchun na ekspert tekshiruvini, na zargar lupasi talab etiladi. Rut Mudi egniga eng yaxshi ko'ylagi va paltosini kiyib, yangi bosh kiyimda asosiy kirish qismidan ichkariga yo'naldi va o'zini ashaddiy o'g'ridek his etdi.

Garri ko'rsatgan aniq chizmaga ko'ra, u do'konning ichki ko'rinishini darrov tanidi. Peshtaxtalar o'n beshta yoki yigirmata. Har birida qora

kamzul kiyib, kumushrang bo'yinbog' taqqan sotuvchilar xizmat ko'rsatmoqda. O'nga yaqin kishi turli vitrinlarda joylashgan qimmatbaho toshlarning go'zalligiga munosib baho berish bilan band.

Rut belgilangan peshtaxta yoniga yaqinlashdi. Sotuvchi undan «Nima yordam kerak?» deb xushmuomalalik bilan so'radi.

«Ey, Xudo, o'zing madad ber!» — pichirladi Rut.

– Mana bu lotok, – ohista dedi u hayajondan kuchsizlangan tanasini tutib turish uchun ikki qo'li bilan peshtaxtaga suyangancha, – ikkinchi tokchadagi. Uni ko'rsam bo'ladimi?

– Albatta, xonim, – dedi sotuvchi, ayolning didi chakki emasligiga tan berib. U javonning orqa devorini ochib, duxoba lotokni qo'lga oldi. Tovlanib turgan javohir yulduzlar Rutning ko'zlarini qamashtirdi.

– Kolleksiyamizning eng zo'r toshlari! – dedi sotuvchi zavq bilan. – Arziri narsa xarid qilmoqchisiz, chog'i?

– Hozircha bir qarorga kelganim yo'q, – javob berdi ayol yuqori qatordagi qimmatbaho javohirga

nazar tashlab.

«Endi nima bo'ladi?» – so'radi u o'zidan. Javob shu zahotiyiq namoyon bo'ldi. Ayoldan o'n fut narida duxoba yoqali palto va kulrang tasmali fetr shlyapa kiygan Garri birdaniga «Yo, xudoyim-yey!» deb baqirib yubordi. Biroq uning ovozi singan shishaning jaranglagan tovushiga singib ketdi. Ayol ushbu shovqindan so'ng sotuvchining rangquti o'chganini ko'rdi. Shlyapali kishi qo'pollik qilib, qo'lidagi dastagi (dastasi) og'ir metallardan yasalgan soyabon bilan derazaga tegib ketdi va uni chil-chil qildi.

– Uzr, kechirasiz! Men bexosdan...

Sotuvchi bir muddat kalovlanib qoldi, keyin o'sha yerga yaqinlashdi. Qiy-chuvdan dovdirab qolgan Rut sotuvchi uzoqlashgandan so'ng qimmatli besh soniya o'tgach, bu yerdan ketishi kerakligini esladi. Ayol lotokning yuqori o'ng burchagini qo'li bilan paypaslab, kattagina javohir to'g'nog'ichni kafti orasiga oldi.

Taqinchoqni paltosining cho'ntagiga solib, eshikka qarab yo'naldi. Ungacha atigi o'n besh qadam masofa bo'lsa-da, uni bosib o'tguncha kechgan vaqt juda uzun tuyuldi. Ortidan eshik yopilgach, Rut bemajol bo'shshib tushdi. Ko'chada quyosh o'zining zarrin nurlarini sochmoqda, odamlar esa u yoqdan bu yoqqa tinmay harakatlanmoqda edi. Yon-atrofdan kulgu ovozi, poshnalarning taqillashi va shunga o'xshagan odatdagi kundalik tovushlar eshilib turardi.

– Xonim, bolalar jamg'armasiga yordam ko'rsata olasizmi?

– Ha, – tush ko'rayotgandek javob qaytardi ayol. Va jamg'armaga o'z hissasini qo'shdi.

Taksiga o'tirgan Rut haliyam qattiq hayajonlanayotgani uchun bir necha daqiqadan so'nggina o'z manzilini esladi.

(Davomi kelgusi sonda.)

Gulchehra AZIMOVA tarjimasini.

BIZ QANDAY DUNYODA YASHAMOQDAMIZ?

Italiyalik faylasuf Umberto Eko biz quloq solishni istamagan paytlardayoq ostonamizda turgan xavfdan ogoh etgandi.

Umberto Eko bir safar ijtimoiy tarmoqlar barchaga o'z nuqtayi nazarini bildirish imkonini berganini, ammo bilim, saviya, yuksak did bilan shunchaki xashaki gap o'rtasidagi chegarani yo'q qilib tashlaganini aytgandi.

O'shanda ko'pchilik undan xafa bo'lgandi.

Ba'zilar uni zodagonlarcha, xoslarga xos fikrlashda aybladi. Boshqalar esa oddiy odamlarni mensimaslikda gumon qildi. Biroq Eko odamlarning gapirishga haqqi yo'q demoqchi emasdi.

U boshqa narsadan ogohlantirgan edi: qachonki tekshirilgan fakt va tasodifiy mish-mish bir xil ko'rinishga ega bo'lsa – haqiqat yutqaza boshlaydi.

Yolg'on kuchliligi uchun g'olib kelmaydi. Balki u balandroq baqirgani uchun yutadi.

Bugun biz aynan mana shunday dunyoda yashayapmiz.

Algoritmilar nimani ko'rinishimizni hal qiladi. Shov-shuvli sarlavhalar vazmin tushuntirishlardan ustun keladi. Hissiyotlar tekshirilgan ma'lumotlardan ko'ra tezroq tarqaladi.

Eko oddiy, ammo juda muhim maslahat bergandi:

– O'qing. Ko'p o'qing.

Faqat o'zingizga yoqadigan narsalarni emas.

Sizni shubhalanishga majbur qiladigan narsalarni ham o'qing.

Qarashlaringizga zid bo'lgan narsalarni o'qing. Eski kitoblarni. Murakkab matnlarni. Siz fikriga qo'shilmaydigan mualliflarni.

Chunki mutolaa – bu aql uchun o'ziga xos imunitetdir.

Usiz inson manipulyatsiyalar, sensatsiyalar va chiroyli yolg'onlar uchun oson o'ljaga aylanadi.

Umberto Eko 2016-yilda vafot etdi. U dezinformatsiya, o'rtamiyonlik, jo'nlik, savodsizlik, mashhurlikka intilish vasvasasi, andishasizlik, pul uchun har qanday axloqsizlikni o'ziga ep bilish kundalik hayotimizning bir qismiga qanchalik tez aylanib ketganini ko'rmadi. Biroq uning ogohlantirishi bugun yanada kuchliroq yangramoqda: hamma gapira oladigan dunyoda eng muhimi — fikrlashni o'rganishdir.

Chunki haqiqat hech qachon baqirmaydi.

Ba'zan u past ovozda gapiradi.

Va aynan shuning uchun ham uni eshita olish kerak.

Jaloliddin SAFOYEV tarjimasini.





Ikrom HASANOV olgan suratlar.



Bilmaganni bilgan yaxshi

«Zebra» qayerda «tug'ilgan»?

Avtomashinalar yaratilishidan ancha oldin paydo bo'lgan va vaqt o'tishi bilan takomillashib borgan piyodalar o'tish joyi o'ziga xos tarixga ega.

Eng birinchi piyodalar o'tish joylari qadimgi Rimning Pompey shahrida bundan ikki ming yil oldin paydo bo'lgan. Arxeologlar tomonidan topilgan mazkur o'tish joylari yo'ldan balandroq bo'lgan va yirik toshlardan terilgan. Natijada bu piyodalar yo'ldagi loy yoki suvga oyoq bosmay o'tishiga xizmat qilgan, shu bilan birga, aravalar g'ildiraklarini toshlar orasidan o'tkazishi kerakligi sababli tezlikni pasaytirishga majbur bo'lgan. Bu zamonaviy «zebra»ning ilk ko'rinishi edi.

Hozirgi ko'rinishdagi piyodalar o'tish joyi tarixi insoniyatning yo'llarni tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqqan. Biz o'rgangan oq-qora chiziqlar, ya'ni piyodalar



o'tish joyining «zebra» ko'rinishi 1950-yilda Angliyaning Slou shahrida joriy etilgan. U birinchi bor chorrahada qo'llanilgan. Shundan so'ng, bu kabi piyodalar o'tish joylari «ko'hna qit'a»ning boshqa davlatlarida ham keng ommalasha borgan.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab yo'llarda piyodalar uchun maxsus svetoforlar o'rnatilgan. 1970-yillarda esa yer osti va yer usti o'tish yo'laklari qurila boshlandi. Hozirgi kunda piyodalar o'tish joylarini barpo qilishda zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bu piyodalar xavfsizligini ta'minlash hamda ularning qulay harakatlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Feruz YO'LDOSHOV,
o'z muxbirimiz.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Kamol OLLOYOROV
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:
71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1343.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
49786 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonamanzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.